

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI  
TOSHKENT DAVLAT SHARQSHUNOSLIK INSTITUTI  
XITOIYSHUNOSLIK FAKULTETI**

**BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**KOREYA YARIM OROLIDA XAVFSIZLIKNI TA‘MINLASHDA  
XITOIYNING TA‘SIRI**

**Bajardi:** Jahon siyosati ta‘lim yo‘nalishi bitiruvchi kurs  
talabasi Erkinova Ra‘noxon Sultonbek qizi \_\_\_\_\_

**Ilmiy rahbar :** O‘qituvchi. Karimov F,E \_\_\_\_\_

**Ilmiy maslahatchi:** s.f.d. Prof. Idivov U.Y \_\_\_\_\_

## MUNDARIJA

<b>KIRISH .....</b>	<b>3</b>
<b>1 bob XAVFSIZLIK MASALALARINI O'RGANISHNING NAZARIY– KONSEPTUAL ASOSLAR.....</b>	<b>8</b>
1.1 Xavfsizlik borasidagi nazariy qarashlar va ularda mintaqaviy xavfsizlik masalalari .....	8
1.2 Xavfsizlik tushunchasi mohiyati va dolzarbligi .....	18
<b>2-bob ZAMONAVIY XITOIY TASHQI SIYOSATIDA KOREYA MUAMMOSI.....</b>	<b>28</b>
2.1 Koreya yarim orolida xavfsizlik masalalarining o'ziga xos xususiyatlari .....	28
2.2 XXR tashqi siyosatida Koreya davlatlari .....	37
2.3 Shimoliy Koreya yadroviy dasturini nazorat qilishda XXR roli .....	46
<b>Xulosa .....</b>	<b>57</b>
<b>Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....</b>	<b>59</b>

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi** XXI asr insoniyat tarixida o'z xavfsizligini ta'minlashning yangi tamoyillarini ishlab chiqish va ularga amal qilishda olib borayotgan asrimizning boshlarida kechayotgan voqealıklar ko'rib chiqilmoqchi bo'layotgan ilmiy tadqiqot ishida o'z aksini topadi. Xavfsizlik borasida xalqaro tashkilotlar faoliyatining asosiga aylanib borayotganligini ko'rishimiz mumkin.

Bugungi kunda dunyoda ahamiyati va ko'lami jihatidan o'ziga xos bo'lgan o'zgarishlar ro'y bermoqda. Ular mamlakatlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda vujudga kelgan qarashlar va ularning sabablarini ko'p jihatdan qayta baholashni ham talab qiladi. Shu sababli "sovuq urush" davrida xalqaro munosabatlarga asos bo'lgan qoidalarni qaytadan ko'rib chiqish talab etilmoqda. Bugungi globallashuv davrida biror bir davlatda yoki mintaqada ro'y bergan voqealar boshqa davlatlarga qarab tarqalishi darajasi tezlashmoqda.

Xalqaro munosabatlarning globallashuvi, davlatlarning bir biriga bog'liqligi sezilarli darajada kuchaygani shundaki, bir mintaqadagi muayyan iqtisodiy, moliyaviy muammolari umumoliyaviy inqirozga olib kelishi hamda bu holat o'z navbatida siyosiy va ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqarishi mumkin. Xavfsizlik masalasi ham shu jarayonlar natijasida dolzarb masalaga aylanmoqda. Xavfsizlikni ta'minlash hayotiy zaruriyatga aylanmoqda. Chunki hayotiy muhim manfaatlarni himoya qilish natijasida xavfsizlik masalasi yuzaga kelmoqda, keyin milliy, mintaqaviy va nihoyat xalqaro tus olmoqda. Xavfsizlik tushunchasini faqat harbiy soha bilangina chegaralanib qolmaslik kerak. Keyingi paytda xavfsizlikning siyosiy, iqtisodiy, insoniylik va boshqa belgilarini o'ichiga olgan harbiy bo'lmagan jihatlarini anglash kuzatilmoqda<sup>1</sup>.

Xususan Koreya yarimorolidagi xavfsizlik masalasi allaqachon jahon siyosatining og'riqli, masalasiga aylanib ulgurgan. Ikkinchi jahon urushidan so'ng buyuk davlatlar o'z manfaatlarini Koreya yarimoroliga qaratdilar. Koreya yarim

---

<sup>1</sup> Karimov I.A. Mintaqada Xavfsizlik va hamkorlik uchun. Toshkentda Markaziy Osiyo Xavfsizlik va hamkorlik uchunmasalalariga bag'ishlangan kengash-seminarida so'zlagan nutqi. 1995-yil 15-sentabr // Bunyodkorlik yo'lidan Asar to'plami. 4 jild. – T.:O'zbekiston, 1996. B.35.

oroli ikki xil tuzum, Aqsh va Sobiq Ittifoq manfaatlari kesishgan geostrategik hududga aylandi. Tili, aholisi, etnik tuzilishi bir xil boʻlgan yagona Koreya davlati ikki qismga ajralib qolgan edi. 1950-1953-yilgi Koreya urushi KXDR va Koreya Respublikasining mamlakatni birlashtirish yoʻlidagi oʻtkir qarama qarshiligi mahsulidir. Urushning boshlanishiga ikki davlat tomonidan uyushirilgan koʻplab qurolli toʻqnashuvlar sabab boʻldi. Bu esa oʻz navbatida keng koʻlamli harbiy harakatlarni kelirib chiqardi. Koreya urushining natijasida Koreya yarimoroli 38 parallel boʻylab ikki davlatga ajraldi. Koreya masalasi jahon siyosatida eng dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Oxirgi paytlarda yarimoroldagi siyosiy muammolar safiga ijtimoiy muammolar ham qoʻshildi.

Mintaqa xavfsizligini taʼminlash mintaqada joylashgan davlatlarning turli sohalardagi barqaror taraqqiyotiga, bu hududda yashovchi xalqlarning ijtimoiy farovonligiga va tinchligiga erishish mumkin. Xususan Prezidentimiz taʼkidlaganlaridek "...Umumjahon xavfsizligi mintaqaviy xavfsizlikga erishishdan, muayyan mintaqadagi aniq ravshan davlatlarning hamjihatligi va birgalikdagi harakatidan boshlanadigan jarayondir<sup>1</sup>.

Koreya muammosi asosini Ikki Koreya davlatlari oʻrtasidagi munosabatlar tashkil qiladi. 90-yillar boshida KXDR va Shimoliy Koreya oʻrtasida aloqalarni yaxshilashga qaratildi. 1991-yil Phenyan va Seul bosh vazirlar miqyosida uchrashuvlar tashkil etishga kelishildi, ikki davlat oʻrtasida yarashish, hujum qilmaslik, hamkorlik va Koreya yarimorolini yadrodan holi qilish toʻgʻrisidagi bitim imzolandi. Lekin KXDR va Koreya Respublikasi oʻrtasida barqaror dialog amalga oshirilmadi. Bunga asosiy sabablardan biri Shimoliy Koreyada yuzaga kelgan iqtisodiy inqiroz edi. Keyinchalik paydo boʻlgan Shimoliy Koreya yadroviy dasturi esa muammosini yanada chigallashtirdi.

2010-yil bahoridan boshlab Koreya yarim orolidagi vaziyat sezilarli darajada yanada keskinlashishi kuzatila boshlandi. 2010-yil noyabr oyiga kelib bu yuqori koʻlamdagi inqirozga aylandi. Bunga sabab 2010-yil mart oyida Janubiy Koreya

<sup>1</sup>Каримов И.А. Олий мақсадимиз. Тошкентдаги дипломатия корпуси ва республикада фаолият кўрсатаётган журналистлар билан учрашувда сўзланган нутқ, 1995 йил 29 декабрь // Бунёдкорлик йўлидан.—Асар тўплами —Т. 4. Т.: Ўзбекистон. 189-б.

suvosti kemasi “Chxonan”ning cho‘ktirilishi edi. Bu inqirozlarga qadar ham Koreya masalasi har doim dolzarb muammo bo‘lib kelgan. Vaziyatning bunday keskinlashuvi 2009-yilgi may oyidagi yadroni sinovdan o‘tkazishidan ko‘proq reaksiya keltirib chiqardi. Koreya muammosi o‘ziga yanada ko‘plab ishtirokchi tomonlarni jalb etmoqda. Mazkur mavzuda Koreya masalasi Xitoy ishtiroki, ta‘siri ko‘rib chiqiladi.

Xitoy mintaqadagi qudratli davlat ham qo‘shni davlat sifatida mazkur muammodan chetda qola olmasdi. XXR allaqachon mintaqadagi masalalarda yetakchi pozitsiyani egallagan. Chunki bu yerda jahonning yirik davlatlari to‘qnashgan hudud edi. Koreya masalasida Xitoy ta‘siri doimo sezilib kelingan. Qolaversa muammoni hal qilishda Xitoy har doim KXDR pozitsiyasini qo‘llab quvvatlab kelgan. Xitoy askarlari Shimoliy Koreyalik askarlar bilan bir qatorda Koreya urushida qatnashdilar. Sobiq Ittifoq KXDR bilan tor hamkorlik qilishidan bosh tortgandan so‘ng mantiqan uning o‘rnini Xitoy egalladi. Xususan tahlilchilar fikricha, XXR Phenyan “quloq” soladigan yagona davlatdir. Mazkur bitiruv malakaviy ishning dolzarbligi shundaki, bugungi kunda Xitoy Janubiy sharqiy Osiyo mintaqasida yetakchi davlat sifatida Koreya yarim orolidagi vaziyatga munosabati va mintaqadagi xavfsizlikni ta‘minlashdagi rolini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Mavzuning o‘rganilganlik darajasi** Bitiruv malakaviy ishi tayyorlashda, avvalo, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimovning davlatimiz taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlari, O‘zbekiston Respublikasi tashqi siyosatining tamoyillari, mintaqaviy va global xavfsizlik masalalari keng va har tomonlama yoritib berilgan asarlariga va xalqaro tashkilotlar doirasida O‘zbekiston pozitsiyasidan so‘zlagan nutqlariga tayanildi<sup>1</sup>.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997, – 326 б.; Каримов И.А. Мамлакатимизни модернизация қилиш йўлини изчил давом эттириш – тараққиётимизнинг муҳим омили. Президент Ислам Каримовнинг ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганининг 18 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги маърузаси. // Халқ сўзи, 2010 йил 8 декабрь; Каримов И.А. Асосий вазифамиз – Ватанимиз тараққиёти ва халқимиз фаровонлигини янада юксалтиришдир. – Т.: Ўзбекистон, 2010. – 80.б.;

Xavfsizlik tushunchasi va mohiyati, mintaqaviy xavfsizlik masalalarini mamlakatimiz yetakchi professorlari Saidolimov S.T, Jo‘rayev<sup>1</sup> tomonidan tadqiq etilgan.

Toshkent Davlat Sharqshunoslik Institutining professorlari hamda o‘qituvchilari Shozamanov Sh, Bekmurotov I.N, Karimova N.E, Kim V.S<sup>2</sup>, Xitoy va Koreya davlatlarini tadqiq qilgan.

BMI mavzusini xorijlik olimlar, xususan MDH va turli mintaqalarda iste‘qomat qiluvchi olim va tadqiqotchilar Voronsov A.G, Denisov V.I, Torkunov A.V, Ufimsev E.P., Savelyev R, va Tixomirov V.G<sup>3</sup> kabi olimlar Koreya masalasi va uning xalqaro munosabatlarga ta‘sirini tadqiq qilgan bo‘lsalar, Mammonov M.M, Lankov A.N, Bezlova A.<sup>4</sup> va boshqalar Xitoy Xalq Respublikasining Koreya davlatlardagi siyosati, Xitoy va Koreya davlatlari munosabatlarini yoritganlar.

Primakov E., Mirzayan G.V., Chan Yan<sup>5</sup> Shimoliy Koreya Yadroviy dasturi masalasini va bunga xalqaro hamjamiyatning munosabatini o‘rganib, yoritganlar. Shuningdek bitiruv malakaviy ishini tayyorlashda bir qator internet resurslaridan ham foydalanildi.

---

<sup>1</sup> Жўраев С. Саидолимов С.Т Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. Ўқув қўлланма. – Т.: 2007. 148 бет; Саидолимов С.Т. Хавфсизлик борасидаги айрим концептуал қарашларнинг ўзига хос хусусиятлари // Халқаро муносабатлар. Т.;2003 №3. –В. 94.

<sup>2</sup> Bekmurotov I.N. Xitoy tashqi siyosati mentaliteti: yangi asr ehtiyoji. // “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T.: 2014. — В.230-237 ; Шамаманов Ш.И. Ислохотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шарқшунослик институти, 2014. –167 б.; Каримова Н.Э Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран Востока и Запада. Учебное пособие Ташкент: Фан, 2006. 400 с.; Каримова Н.Э. Взаимоотношение Китая с государствами Корейского полуострова Востоковедение. ТашГИВ. 2007. № 1-2. С. 23-24; Каримова Н.Э. Узбекистан и Корея: исторические связи. Монография Ташкент, 2008. 90 с.; Ким В.С. Дипломатия Китая (соавторство: Е. Иванченко) « Маяк Востока», 2007 ; Ким В.С Китай с позиции «мягкой силы» входит в эпоху глобализации. Материалы международной научной конференции «Судьбы национальных культур в эпоху глобализации» Челябинск: ЧелГУ, 18.03.2010.

<sup>3</sup> Воронцов А.Г. Корейская проблема в системе международных отношений с середины 80-х годов до середины 90-х годов XX века; Денисов В.И. Корейская проблема: пути урегулирования – М.; 1988 – 139с.; Торкунов А.В. Уфимцев Е.П. Корейская проблемаж новый взгляд. М.; Изд центр Алкил,1995; Савельев Р Перспективы объединения Кореи: Взгляд из России // Проблемы Дальнего Востока. 1997;Тихомиров В.Д. Корейская проблема и международные факторы – М.: МО 2010;

<sup>4</sup> Мамонов М. Система внешнеполитических приоритетов современного Китая. Глава в кн.: Современная мировая политика. Под ред. А.Д. Богатурова. М.: Аспект Пресс, 2009. С. – 418. Ланьков А.Н. КНДР вчера и сегодня М Восток-Запад 2005 – 445с. Bezlova A. China Crows Over N.Korea “ Diplomatic Coup-Inter Press Service 2005 26р.

<sup>5</sup> Примаков Е. Мировые проблемы. Ядерная проблема КНДР; перспективы развития. // Мирзаян Г.В. США и Северокорейская Ядерная программа. // США Экономика. Политика 2012 № 6 ; Чан Янь. Роль Китая в урегулировании Северокорейской ядерной проблемы М.: 2008 С. 158–161.

**Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari:** Mazkur tadqiqot ishi o'z oldiga Koreya yarim orolida xavfsizlikni ta'minlashda Xitoy Xalq Respublikasining o'rnini va ahamiyatini aniqlashdan iborat. Bitiruv malakaviy ishning maqsadiga kerakli darajada erishish uchun quyidagilar tadqiqotning vazifalari qilib olingan:

- Xavfsizlik tushunchasi va mohiyatini o'rganish;
- Hozirgi globallashuv sharoitida xavfsizlikga oid nazariy qarashlarni va mintaqaviy xavfsizlik mohiyati va unga ta'sir etuvchi omillarni tahlil qilish;
- Koreya yarimorolida xavfsizlik masalasini vujudga kelish tarixini o'rganish;
- Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosatida Koreya davlatlari tutgan o'rnini tadqiq etish;
- Koreya masalasining bugungi holatini, XXRning zamonaviy pozitsiyasini aniqlash;
- XXRning Shimoliy Koreya yadroviy dasturini nazorat qilishdagi rolini o'rganish.

**Bitiruv malakaviy ishi obyekt:** Koreya yarimorolida Xavfsizlikni ta'minlash masalasi mazkur ishning obyektini hisoblanadi.

**Bitiruv malakaviy ishi predmeti** Xitoy Xalq Respublikasi tashqi siyosatida Koreya yarimorolida Xavfsizlikni ta'minlash masalasi hamda shu yo'nalishdagi siyosiy jarayonlar mazkur ishning predmetini tashkil qiladi.

**Bitiruv malakaviy ishi nazariy va metodologik asoslarini** O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov asarlari, Xitoy Xalq Respublikasi Tashqi siyosati Konsepsiyalari, Xalqaro va hukumatlararo tashkilotlar hujjatlari, BMT rezolyutsiyalari hamda mahalliy va xorij olimlari kitoblari, monografiyalari, maqolalari va internet nashri maqolalari tashkil qiladi

Nazariy jihatdan dissertatsiyani yozishda O'zbekiston hamda chet el olimlari, siyosatshunoslarning asarlari va maqolalari ham muhim ahamiyat kasb etdi.

BMI ni yozish jarayonida asosiy metodologik yondashuvlar sifatida tarixiy-retrospektiv, qiyosiy-tahliliy, sotsiologik-statistik kabi yondashuvlardan foydalanildi.

BMI oldida turgan nazariy-metodologik muammolarni yechish va mavzuni yoritish jarayonida zamonaviy siyosatshunoslik fani qarashlaridan va ijtimoiy ongga xos bo'lgan ilmiy uslublardan foydalanildi.

**Bitiruv malakaviy ishi strukturasi**, hajmi mazkur tadqiqot ishi kirish qismi, ikki bob, beshta paragraf, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. 64 bet.



## **I BOB. XAVFSIZLIK MASALASI NAZARIY KONSEPTUAL ASOSLARI**

### **1.1 Xavfsizlik borasidagi nazariy qarashlar va ularda mintaqaviy xavfsizlik masalalari**

Xavfsizlik tizimini tahlil qilish jarayonida uning tarixiy bosqichlarida avvalo shaxs xavfsizligi muhim rol o'ynagan. Shaxs xavfsizligi muammosi inson oliy qadriyat ekanligi anglab yetgandan boshlab, yuzaga kela boshladi. Inson hayot kechirishi xavfsizligi deb har bir insonning o'z organizmiga ta'sir ko'rsatuvchi omillardan himoyalaniş holatiga aytiladi. Shaxs xavfsizligi predmeti jismoniy, intellektual, psixologik genetik va boshqa manfaatlari tashkil qiladi.

G'arb mamlakatlaridagi xavfsizlik borasidagi qarashlar turli xil bosqichlarni bosib o'tgan. Xavfsizlik haqidagi fikrlarning ilk bosqichi antik davrlarga borib taqaladi. Masalan, Sitseron, Demokrit, Suqrot va Arastu va shu kabilar. Bu kabi mutafakkirlarning g'oyalarida individ xavfsizligiga qaratilgan, inson hayotiga suiqasdga qarshi kurashga chorlagan, Davlatning asosiy vazifasi sifatida fuqarolarning hayot va mol mulk xavfsizligini ta'minlash deb e'tirof etilgan. Davlatning asosiy vazifasi fuqarolarni va ularning mol mulkini xavfsizligini ta'minlash deb tushunilgan.

Oxirgi 100 yillar davomida Jon Lokkning liberal ta'limoti Amerika xavfsizlik Konsepsiyasida yetakchi rol o'ynab keldi. Shundan kelib chiqqan holda, Amerika Qo'shma Shtatlari Milliy Xavfsizlik konsepsiyasi so'zsiz liberalizm asosida qurilgan. Keyinchalik liberalizm asosida neoliberalizm shakllana boshladi. Shaxs xavfsizligini ta'minlash oxir-oqibatda barcha ijtimoiy voqealikda barqarorlikga va rivojlanishga olib keladi. Shaxs va jamiyat xavfsizligini ta'minlash muammosi o'z navbatida milliy xavfsizlik masalasini olimlar tomonidan o'rganilishiga olib keldi.

Ammo ba'zi bir liberal maktablar ta'limotida davlat jamiyat va shaxs xavfsizligini bir-biriga qarama qarshi qilib qo'yish holatlari uchraydi. Xavfsizlikning bir turini ikkinchi bir turidan ustun qo'yish bir xavfsizlik turning

hukmron bo`lishiga va mutlaqlashtirishga olib keladi. Mazkur jarayon jamiyat hayotida totalitar tuzumga o`rnatilishiga olib kelishi mumkin.

Shaxs xavfsizligini ta`minlash oxir-oqibatda barqarorlikga va rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Shunga qaramasdan ko`plab rivojlangan davlatlarda davlat xavfsizligiga katta e`tibor qaratilmoqda. Bugungi zamonaviy taraqqiyot jarayonida shaxs huquq va erkinliklari, uni himoya qilishga ma`sul bo`lgan siyosiy hokimiyatga tobora bog`liq bo`lib bormoqda. Shaxs va jamiyat xavfsizligini ta`minlash, uni himoya qilish har bir davlatning asosiy vazifasidir. Bunda davlat alohida vakolatlarga ega. Ammo bu jarayonda shaxs va jamiyat manfaatlaridan davlat manfaatlari ustun qo`yilishi davlat faoliyatiga ta`sir ko`rsatadi va beqarorlik keltirib chiqaradi.

Zamonaviy xavfsizlik konsepsiyalarda keying yillarda birinchi o`ringa shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligi emas, balki xalqaro xavfsizlik oliy qadriyat sifatida ko`tarilmoqda. XXasrning 40-50 yillarida jahonda davlat xavfsizligi xalqaro kollektiv xavfsizlik bilan mutlaq mos kelmasligi e`tirof etilgan konseptual fikrlar bo`lgan. Bu asosan Amerika jamiyatining **“siyosiy realizm”** maktabi tomonidan ilgari surilgan. Siyosiy realistlar xalqaro munosabatlar davlatlarning mustaqil siyosati yig`indisidir deb ta`rif etadilar. Xalqaro munosabatlarda milliy manfaatlar to`qnashishi muqarrardir. Aynan mana shu realistlar fikricha to`qnashuv xalqaro munosabatlar maydoni tashkil etadi. Bu maktab boshqa yo`nalishi vakillari xavfsizlik konsepsiyalarida zamonaviy xalqaro munosabatlarda davlatlar rolini pasaytirishga urinadilar.

Bugungi kunda siyosiy realizm tarafdorlari dunyo siyosatida qo`llab quvvatlanmoqda. Xususan Amerikalik olim Kolin Grey **“Qudratli davlatlar geosiyosati”** asarida zamonaviy holatiga geosiyosiy qarama qarshilik nuqtai nazaridan yondashadi. U dunyoda hukmron davlatlarnig o`zaro manfaatlarning qarama qarshiligida deb baholadi. Aqsh xavfsizligini ta`minlashdagi asosiy yo`nalish K.Grey fikricha , dunyoda o`z harbiy salohiyatini o`stirish va yadro urushiga tayyorgarlik ko`rishdan iborat<sup>1</sup>. Shuni ta`kidlash lozimki siyosiy realistlar

---

<sup>1</sup> Qarang: С. Жураев С.Саидолимов З.Абдуғаниева. Халқаро хавфсизлик. Ўқув қўлланма Т; 2007 148 б.

har doim ham xavfsizlikni ta'minlashda harbiy kuch ishlatish omillariga bog'lamaydilar. Milliy maqsadlarga erishishda siyosiy, iqtisodiy, madaniy omillarni ham e'tirof etadilar.

Xavfsizlikga doir yana bir qarash bu xalqaro hamjamiyat nazariyasi bo'lib, uning tahlili milliy davlatlarning dunyodagi o'rnini va davlat suverenitetining istiqbollari to'g'risidagi tasavvurlar bilan bog'liq. Bu qarash tarafdorlari milliy davlatlarni xavfsizlikning asosiy subyektlari va xalqaro tashkilotlar asosi sifatida qaraydilar. Xavfsizlikning boshqa subyektlari esa milliy davlatlarga tobe yoki bog'liqlik sifatida talqin qilinadi. Shu orqali zamonaviy xalqaro munosabatlarning hususiyati ochib beriladi va dunyo hamjamiyati yaxlit va bo'linmas degan xulosaga kelinadi.

Xususan, angliyalik tadqiqotchi D.Berton fikricha bugungi milliy davlatlar o'rnini xalqaro hamjamiyat egallamoqda. Buni jadal rivojlanib borayotgan globalashuv va integratsiyada ko'rishimiz mumkin<sup>1</sup>.

“Sovuq urush”ning tugashi xalqaro munosabatlar vaziyatning o'zgarishiga olib keldi. Xususan, xavfsizlikga doir qarashlar ham o'zgargan. Endilikda xavfsizlikga tahdid soluvchi no'anaviy tahdidlar paydo bo'lishi vaziyatni yanada murakkablashtirgan edi. Tarix sahnasiga Frensis Fikuama, Samuel Hantington<sup>2</sup> kabi olimlar o'z konsepsiyalari bilan chiqdilar. F.Fikuama o'zining mashhur “Tarixining tugashi yoki so'nggi odam” asarida Sobiq Ittifoqning parchalanishi voqeasini dunyoda sotsializmning mag'lubiyati liberal demokratik g'oyalarning kommunizm ustidan g'alabasi deb baholaydi. Olim shu bilan dunyoda barqarorlik o'rnatiladi, “bozor iqtisodiyoti” qaror topadi deb bashorat qiladi. Ammo bashorati to'g'ri chimaydi. Keyingi yillarda F.Fukuyama qarashlariga qarama qarshi Samuel Hantington nazariyasi mashhur bo'ldi. U o'zining “Sivilizatsiyalar to'qnashuvi” asarida endilikda xavfsizlikga tahdid soluvchi kuchlar sifatida sivilizatsiya madaniyatlar to'qnashuvini e'tirof etadi. Dunyoni madaniy bloklar to'qnashuvi qamrab oladi degan g'oya ilgari suriladi.

<sup>1</sup> Жўраев С.Саидолимов С. Абдуғаниева З. Халқаро ҳуқуқ Ўқув қўлланма Т;2007 Б.16

<sup>2</sup> Хантингтон С. Столкновение цивилизаций? // Полис. -1994. -№1. -С.34.

Xozirgi zamondagi mavjud holat xalqaro xavfsizlikning ko`p qirraligini va yalpi harakterining hamda har bir alohida davlat xavfsizligining butun xalqaro hamjamiyat xavfsizligi bilan uzviy bog`liqligi tasdiqlaydi. Bu esa o`z navbatida xavfsizlikning yuridik jihatdan mustahkamlanishiga sabab bo`ldi. Xalqaro xavfsizlik huquqiga ta`rif quyidagicha turli sohalarda (harbiy, iqtisodiy, siyosiy, moliyaviy gumanitar va ekologik va boshqalar) tinchlikni saqlash va xavfsizlikni ta`minlashga qaratilgan xalqaro huquqiy tamoyillar va me`yorlar majmui;

“Rim klubi” tomonidan ilgari surilgan taraqqiyot konsepsiyasi jahon xavfsizligining yangi konsepsiyasini shakllantirishga muhim qissa qo`shildi. Shu narsa aniq bo`ldiki, yalpi xavfsizlik faqat uning barcha punktlari bo`yicha kelishuvga erishilganda hamda ular xalqaro huquq tamoyil va me`yorlarida mustahkamlandagina ancha samarali bo`ladi. Yalpi xavfsizlik tizimiga kirgan xalqaro huquq tamoyillari va me`yorlari davlatlar hatti harakatining shunday chegaralarini ko`rsatadiki, undan tashqarida ba`zi davlatlarning harakatlari boshqalarga zarar qilishi mumkin. Bu mohiyatan davlatlar xavfsiz hatti harakatining ancha aniq chegaralari kodeksi bo`lib BMT Nizomidan ancha ilgarilab ketgan.

Jahonda xavfsizlik va tinchlikni ta`minlash maqsadida Birlashgan Millatlar Tashkilotlar tashkil etildi. Mazkur tashkilot ana shu oliy maqsadni amalga oshirish maqsadida BMT Nizomida bir qancha ahdlarni ilgari surdi. Masalan:

Kuch g`ayratimizni xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun birlashtirish;

Xalqaro apparatdan barcha xalqlarning iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotiga ko`maklashish uchun foydalanish;

Qurolli kuchlar umumiy manfaatlaridan boshqa maqsadlarda qo`llanilmasligi uchun tamoyillarni qabul qilish va usullarni o`rnatishni ta`minlash<sup>1</sup>;

---

<sup>1</sup> БМТ Низомидан кўчирмалар.– Т.: БМТнинг Ўзбекистондаги ахборот маркази. – 2002.– Б.29.

Hozirgi xalqaro munosabatlar holatiga, yangi shakllanayotgan jahon tartibotining rivojiga baho bergan holda, asosan ikki yoʻnalishda namoyon boʻlmoqda.

1. Birinchi yoʻnalish optimistik, yaʼni xalqaro munosabatlardagi vaziyatning barqarorlashishi, davlatlar oʻrtasidagi oʻzaro ishonchning tiklanishi hamda xalqaro hamkorlikning kuchayishi xususidagi qarashlar.

2. Ikkinchisi pessimistik yoʻnalish. Bunda xalqaro munosabatlardagi vaziyat oʻtish davri sifatida baholanib, bu jarayonda davlatlar oʻrtasidagi qarama-qarshiliklar va ziddiyatlarning kuchayishi, ular orasidagi tafovutning ortishi natijasida koʻplab muammolarning yuzaga kelishi alohida taʼkidlanadi<sup>1</sup>.

Olib borilgan tahlillarga koʻra, zamonaviy xavfsizlik kontseptsiyalari oʻz anʼanaviy yondashuvlarini yoʻqotib borayotganligi hamda evolyutsion davrni boshdan kechirayotganligi maʼlum boʻldi. Ular borgan sari individual milliy xavfsizlikka asoslanib bormoqda. Mazkur sharoitda nafaqat milliy xavfsizlik, shuningdek, milliy manfaatlar tizimi ham baʼzi bir oʻzgartirishlarga muhtoj boʻlib qolmoqda. Bugungi kunda milliy manfaatlar nafaqat davlat yoki uning ittifoqchilarining shaxsiy manfaatlarini, balki butun dunyo hamjamiyatining manfaatlarini oʻz ichiga qamrab olishi zarurligi maʼlum boʻldi.

**“Demokratik dunyo”** nazariyasi oʻz davrida I.Kant shunday farazni ilgari surgan edi, yaʼni dunyo hamjamiyatining demokratlashuvi, savdoning rivojlanishi va xalqaro huquqning mustahkamlanishi davlatlar oʻrtasidagi dushmanlikning kamayishiga va xalqaro xavfsizlikning mustahkamlanishiga olib keladi. “Demokratik davlatlar deyarli urushishmaydi, ichki qurolli konfliktlar esa ularda nodemokratik davlatlarga nisbatan kam uchraydi”. Demokratik davlatlar qancha koʻp boʻlsa, tinchlik hududi ham shuncha kengayadi. Konfliktlarni saqlab qolgan hududlar kamayadi va demokratiya va avtokratiya kesishgan dunyo taʼsirining balki chekka hududlariga siljiydi.

Xavfsizlikning koʻp rejali va koʻp maʼnoli xarakteri koʻp hollarda uning oʻziga xos muhim elementlarini aniqlaydi.

<sup>1</sup>Жўраев С.Саидолимов С. Т.Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик Ўқув қўлланма Т.;2005 –43бет

*Birinchi*dan, xavfsizlik – kategoriya. Tizim barqarorlik, o‘z o‘zini boshqarish va yaxlitlik prinsiplarida qurilgan. Xavfsizlik tizimning bu xususiyatlarini har birini himoya qilishi lozim, chunki bu xususiyatlar xohlagan birortasiga bo‘lgan vayronkor ta‘sir tizimning butunlay yemirilishiga olib keladi.

*Ikkinchi*dan, xavfsizlik shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy faoliyatining muhim sharoiti sifatida ko‘riladi va bu ularga o‘zlarining moddiy va ma‘naviy qadriyatlarini saqlash va rivojlantirish imkonini beradi.

*Uchinchi*dan, xavfsizlik o‘z mutloq ma‘nosiga ko‘ra - moddiy va ma‘naviy qadriyatlarga xavf va tahdidning yo‘qligidir. Tahdid xavfsizlikning barcha ta‘riflarida muhim element hisoblanadi.

*To‘rtinchi*dan, xavfsizlikning vazifalari obyektning ma‘lum holatini himoya qilish ehtiyoji chegarasidan ancha chiqib ketadi. Birinchi navbatda bu ijtimoiy munosabatlarning barqaror, progressiv rivojlanishini ta‘minlovchi shart sharoitni shakllantirishda ko‘rinadi.

*Beshinchi*dan, xavfsizlik bu – obyektning xavfdagi holati va obyektning o‘z mohiyatini saqlab qolish qobiliyati va tashqaridan yoki obyektning o‘zida bo‘ladigan maqsadga yo‘nalgan, vayronkor ta‘sir sharoitidagi asosiy xarakteristikasi.

Mintaqaviy xavfsizlik masalasiga to‘xtalishdan avval mintaqa so‘ziga ta‘rif keltirsak. Mintaqa bu qandaydir alomat va hodisalar majmui bo‘yicha ajratilgan hudud yoki hududiy bo‘linish tizimidagi birlik sifatida namoyon bo‘ladi<sup>1</sup>.

Shundan kelib chiqib, **Mintaqaviy xavfsizlik** xalqaro xavfsizlikning asosiy qismi bo‘lib, ma‘lum bir mushtarak geosiyosiy muhitda joylashgan va bir biriga uzoq tarixdan bevosita bog‘langan xalqlar, millatlar, davlatlarga tegishli bo‘lgan hayotiy muhim manfaatlarni ichki va tashqi tahdidlardan davlatlararo hamkorlik asosida himoya qilish holatidir<sup>2</sup>. Ya‘ni bunda mintaqaning rivojlanishiga, barqarorligiga, undagi davlatlar guruhi aloqalarga urush, beqarorlik tahdidini solayotgan omillardan himoyalani holati tushuniladi. Mintaqaviy xavfsizlik va

<sup>1</sup> Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O‘quv qo‘llanma.-T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013 21–bet.

<sup>2</sup> O‘zbekistonda politologiya.-T., Sharq, 2002. B.174.

milliy xavfsizlik bir biriga bog`liq bo`ladi, ammo ma`lum darajada o`zining husuyatlariga ega.

Mintaqaviy xavfsizlik ma'nosida uning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi davlatning hayotiy muhim manfaatlarining himoyalanganligi holati tushuniladi. Yaxshi qo'ni-qo'shnichilik munosabatlari ularning xavfsiz mavjud bo'lishi va barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Mintaqaviy xavfsizlik xalqaro xavfsizlikning turi va global xavfsizlikning tarkibiy qismi hisoblanadi. Mintaqaviy xavfsizlik tizimining komponentlari sifatida quyidagilar tushuniladi:

- Hududiy-davlat yaxlitligi va harbiy siyosiy va boshqa sohalardagi davlat suverenitetini ifodalovchi milliy manfaatlarining ishonchli himoyalanganligiga bo'lgan obyektiv ehtiyojlarini aks ettiruvchi maqsadlar;

- Barcha sohalarda muhim milliy manfaatlar kooperatsiyasini saqlash va qayta ishlab chiqarishga imkon beruvchi butun obyektiv va moddiy sharoitlarni qayta tashkil qilish to'plami sifatida mintaqaviy reintegratsiya;

- Mamlakatlar milliy qonunchiligiga mos ravishda yaratilgan mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash uchun zaruriy vositalar va resurslar safarbarligini birlashtirish;

- Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash tizimi maqsadlariga mos keluvchi, tizim holatining pozitiv o'zgarishiga ta'sir qiluvchi vositalar va kuchlar va milliy va mintaqaviy xavfsizlik obyektining hayotiy muhim manfaatlarini ishonchli himoyalari kooperatsiyasi;

- Mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlashda milliy xavfsizlikning asosiy subyektlari va obyektlari o'zaro kelishilgan harakati.

Globalashuv jarayoni zamonaviy xalqaro munosabatlarning asosiy tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Mashhur Amerikalik faylasuf va sotsiolog F.Fukuyamaning fikricha, globalashuv sharoitida xalqaro maydonda o'z mohiyatiga ko'ra yagona global ishtirokchi mavjud bo'lmaydi. Z.Bjezinskiy esa globalashuv sharoitida jahon siyosatidagi katta shaxmat partiyasida g'olib bo'lmasligini alohida ta'kidlab o'tadi. Oxirgi 20 yoki 30 yilda Yevropa va Aqshda sodir bo'layotgan voqealar, Sharqiy Yevropa davlatlaridagi iqtisodiy

ko'tarilish, Xitoyning roli va ahamiyatini ortib borishi, Hindiston, Braziliya kabi davlatlarni misli ko'rilmagan erishayotgan yutuqlari bunga misol bo'la oladi. Shuning uchun globalashuvni bir tomonlama jarayon deb ta'kidlash ancha murakkab bo'lib, so'nggi davrlarga kelib ta'sir markazi AQSH va Yevropadan dunyoning boshqa hududlariga siljimoqda.

Xalqaro tizimdagi o'zgarishlar natijasida mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash uchun javobgarlik amalda ko'p jihatdan mintaqa ichidagi davlatlarga bog'liq bo'lib bormoqda. Mintaqalarda katta iqtisodiy potensialga ega bo'lgan yetakchi mamlakatlar yuzaga kelmoqda. Shuningdek, mintaqalarda zaif siyosiy legitimlikka ega bo'lgan va o'z chegaralari ichida barqaror ijtimoiy tartibni o'rnatishga qodir bo'lmagan davlatlar ham uchramoqda. Bu omil mintaqaviy daraja bilan yaqin aloqadagi milliy xavfsizlikni ta'minlash uchun hamkorlik yo'llarini izlashni taqozo etadi. Bunday hamkorlikning mexanizmi xalqaro legitimlikka ega bo'lgan mintaqaviy tashkilotlar hisoblanadi. Konfliktlarni bartaraf etish yo'lidagi mintaqa mamlakatlarining samarali hamkorlik shakllaridan biri bu – mintaqada kollektiv xavfsizlik tizimini shakllantirish hisoblanadi. Mintaqaviy tashkilotlar o'ziga xos tajribani ko'rsatish va ishlatish orqali va alohida muammolarni bilish, mintaqa ichida katta legitimlikka ega bo'lgan holda global tashkilotlarning yukini sezilarli yengillashtirishi mumkin.

BMT Ustavi (VIII bob) mintaqa miqyosida xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mintaqaviy kollektiv xavfsizlik xalqaro tashkilotlari tuzishga ruxsat beradi. Bunda quyidagi shartlar albatta bajarilishi lozim:

- mintaqaviy asosdagi harakatlar BMT maqsadlari va printsiplariga mos kelishi, faqat mahalliy nizolarga taalluqli bo'lishi va mazkur hudud doirasidan tashqariga chiqmasligi kerak;
- Xavfsizlik Kengashidan vakolat olmay turib hech qanday majburlov choralari ko'rilishi mumkin emas;
- biron-bir mintaqa davlatlari o'rtasida yuzaga keluvchi har qanday mahalliy nizolar faqat tinch yo'l bilan hal qilinishi lozim;



- Xavfsizlik Kengashi xalqaro tinchlik va xavfsizlikni saqlash uchun mintaqaviy bitimlar doirasida amalga oshirilgan yoki amalga oshirish;
- mo`ljallanayotgan harakatlar haqida hamisha xabardor qilinib turilishi kerak;
- mintaqaviy asosdagi biron-bir harakat BMT xalqaro xavfsizlik universal tizimi doirasidagi harakatlarga zid kelishi mumkin emas.

Mintaqada qurolli kuch yordamida majburlov harakatlari faqat sodir etilgan hujumni qaytarish paytida, BMT Ustavining 51-moddasida nazarda tutilgan yakka tartibda yoki kollektiv tarzda o'zini o'zi mudofaa qilish huquqini amalga oshirish tartibida, bu haqda Xavfsizlik Kengashiga darhol xabar bergan holda amalga oshirilishi mumkin. Mintaqaviy tashkilotlar vakolatiga, avvalo, ulaming a'zolari o'rtasidaginizolami tinch yo'l bilan hal qilish kiradi. BMT Ustavi 52-moddasining 2-bandiga binoan, mazkur tashkilotlaming a'zolari mahalliy nizolar Xavfsizlik Kengashiga oshirilgunga qadar ulami o'z tashkilotlari doirasida tinch yo'l bilan hal qilishga erishish uchun bor kuchlarini safarbar etishlari, Xavfsizlik Kengashi esa, nizolami hal qilishning mazkur usulini rag'batlantirishi lozim. Shu o'rinda mintaqaviy xavfsizlikning siyosiy jihatlariga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, avvalo xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda davlatlararo munosabatlar o'zaro tenglik, davlatlar suvereniteti, xalqlarning o'z taraqqiyot yo'lini o'zi belgilashligi va millat ham xalqlarning o'z taqdirini o'zi hal qilishligi alohida o'rin tutadi. Shuningdek, mintaqalarda yuzaga keladigan siyosiy, iqtisodiy va harbiy inqirozlarni hamda kelishmovchiliklarni tinch muzokaralar yo'li bilan yoki diplomatik aloqalarni rivojlantirish yordamida o'z yechimini topishi alohida ahamiyatga molik.

Davlatlararo munosabatlarda xavfsizlikni ta'minlash mamlakatlarning xalqaro huquqiy prinsiplar va normalarga qat'iy amal qilishi ularning har tomonlama hamkorligiga zamin yaratadi. Globallashuv sharoitida milliy va mintaqaviy xavfsizlik masalalari ilmiy tahlilining mantiqiy va nazariy xotimasi sifatida quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

**Birinchidan**, milliy va mintaqaviy xavfsizlikni ta'minlash, uning huquqiy asoslarini mustahkamlash, mintaqada davlatlarining hududiy yaxlitligini kafolatlash,

ularning tashqi tahdidlardan uzluksiz himoyalanganligini ta'minlash mintaqa doirasida geosiyosiy hamjihatlik ya'ni uzviy bog'liqlikni ta'minlash,

**ikkinchidan**, mintaqada iqtisodiy xavfsizlikni ta'minlash uchun yagona iqtisodiy makon yaratish va uning doimiy takomillashuvini ta'minlash zarur. Bunda xalqaro iqtisodiy tuzilmalar ko'magidan foydalanish maqsadga muvofiqdir,

**Uchinchidan**, ekologik muammolarni hal qilishda kollektiv asosdagi yondashuv hamda xalqaro hamjamiyat va mintaqaviy tashkilotlar hamda davlatlarining ichki imkoniyatlarini ko'rib chiqish maqsadga muvofiqdir.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ushbu muammoga oid turli-tuman nazariy qarshlar ilgari surilgan. Masalan, ayrimlariga ko'ra, barqarorlik va taraqqiyot bo'lsa xavfsizlik o'z o'zidan ta'minlanadi deyishadi. Ikkinchi bir toifa mutaxassislar, siyosatchilar bugungi kunda barqarorlik va taraqqiyotning fundamental omillar sifatida mavjudligi birinchi navbatda xavfsizlikka bog'liq, deyishmoqda. Har ikkala fikrga qo'shilgan xolda shuni ta'kidlamoqchimizki, xususan bugungi kunda insoniyat uchun shu qadar ulkan xavf-xatar va tahdidlar paydo buldiki, mustahkam va eng muhimi uzoqqa muljallangan xalqaro xavfsizlikka asos solinmas ekan, na barqarorlik va na taraqqiyot to'grisida jiddiy so'z yuritish qiyin va bir tomonlamalikdir.

## **1.2. Xavfsizlik tushunchasi, mohiyati va dolzarbligi.**

XX asrning oxirgi 10 yilligida Yer sharida shu qadar ulkan siljishlar sodir bo'ldiki, u xalqaro hamjamiyatning siyosiy, ijtimoiy va kerak bo'lsa, ma'naviy asoslarini keskin o'zgartirdi. Batamom yangi davlatlar jahon siyosati maydoniga kirib keldi, yer yuzi xalqarining yashash tarzi va uslubi va sotsial mo'ljallarida yangilanish sodir bo'ldi va nihoyat, millionlab odamlar ongi, olam mohiyatiga bo'lgan qarashlarida chuqur o'zgarishlar yuz berish jarayoni boshlandi. Bugungi kunda insoniyat, turli-tuman rasmiy va norasmiy ilmiy markazlar va guruxlar bundan keyin bexatar, barqaror va rivojlanishda davom etish uchun xavfsizlikning

umumbashariy tizimga aylanishi zarurligi xakida fikr bildirishmokka. Xalqaro hamjamiyat bugun oʻzida shu qadar ulkan yaratuvchilik, kuch-kudrat va salohiyatga egaki, uni roʻyobga chiqarish uchun butun dunyoda xavfsizlik taʼminlanishi lozim.

Eʼtiborga loyiq jihati shundaki, bugungi kunda xavfsizlikni faqat harbiy-siyosiy sohaga oid deb tushunmasdan shuningdek, uni inson mavjudligi va oʻz-oʻzini qayta ishlab chiqarish uchun kerak boʻlgan barcha jabxalarga taalluqli deb qarash barcha mamlakatlarda shakllanmoqda. Zero, Prezidentimiz qayta-qayta taʼkidlaganlaridek, xavfsizlik tom maʼnoda xadsiz-xududsizdir.

Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni taʼminlash va muvozanatga keltirish manfaatlari nuqtai nazaridan, mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Muhtaram Prezidentimiz “Xavfsiz dunyo – umuman, butun insoniyat uchun ham huquqlari uchun kurashda ozmuncha nayzasi sinmagan har bir inson uchun ham oliy maqsaddir. Bugungi kunda jahondagi koʻpgina mintaqalarda roʻy berayotgan, odamlarni eng asosiy huquqi – yashash huquqidan mahrum qilayotgan qonli toʻqnashuvlar toʻxtatilmagan ekan, inson huquqlari va taraqqiyot sohasidagi yutuqlari toʻgʻrisida jiddiy gapirib boʻlmaydi”<sup>1</sup>, deb taʼkidlab oʻtganlar.

Xavfsizlik tushunchasi, biron bir tashqi taʼsirning salbiy oqibatlaridan himoyalangan va ushbu salbiy oqibatlarni bartaraf qilishdir. Xavfsizlik tushunchasini keng va tor maʼnoda tushunish mumkin. Keng maʼnoda xavfsizlik, hayotimizga rahna soluvchi har qanday holatga qarshi chora koʻrishni anglatadi. Yaʼni mavjud xavfning rahna solishiga qarshi kurashishdir. Tor maʼnoda xavfsizlik, maʼlum bir sohagagina taalluqli boʻladi.

Insoniyat xavfsizlik tushunchasi mazmun mohiyatini yanada boyitmoqda. Avvallari xavfsizlik deganda insonning jismoniy tirik qolishi koʻzda tutilgan boʻlsa, bugungi kunda kishilik jamiyati uchun xavfsizlik xavf-xatarlari nafaqat harbiy, balki siyosiy, iqtisodiy, ekologik va hattoki maʼnaviy koʻrinishlarga ega

<sup>1</sup>Каримов И.А. Минтақада хавфсизлик ва ҳамкорлик учун. Тошкентда Марказий Осиёда Хавфсизлик ва ҳамкорлик масалаларига бағишланган кенгаш-семинарида сўзланган нутқ, (15 сентябрь 1995 й.) // Бунёдкорлик йўлидан.-Асар тўплами. 4-жилд, 35-б.

bo`ldi. Shakl nuqtai nazaridan informatsion, kommunikatsion, ma`naviy ijtimoiy tabiiy va nihoyat g`oyaviy ko`rinishlari paydo bo`ldi. Xavfsizlik tushunchasiga turlicha manbalarda turli ta`riflar berib o`tiladi.

O`z vaqtida buyuk mutafakkir Spinoza “tinchlik - bu faqatgina urushlarning bo`lmasligi emas”<sup>1</sup> – degan edi. Spinoza xavfsizlik tushunchasini tor ma`noda tushunish maqsadga muvofiq emasligini, u faqatgina insoniyatni jismonan yashab qolishi uchun bevosita xavf-xatarlarning yo`qligi bilan chegaralanmasligini uqtiradi.

O`rta asr uyg`onish davri mutafakkirlari davlatning xavfsizlikni ta'minlash masalalaridagi hal qiluvchi rolini mustahkamlashgan. Bu masalada ingliz mutafakkiri T.Gobbsning asarlari alohida diqqatga sazovor. T.Gobbs siyosiy nazariyasida davlat xavfsizligi bosh siyosiy qadriyat sifatida ko`riladi. Kuchli davlat hokimiyati tarafdori sifatida u davlatni “ko`pchilik insonlar o`rtasidagi o`zaro shartnoma orqali qilingan harakatlarga javoban yagona shaxs sifatida aniqlaydi va bu shaxs kuch va boshqa barcha vositalarni tinchlik va umumiy himoya uchun ishlata olishi lozim”.

Xavfsizlik deganda shunday tizim holatiki, ichki va tashqi faktorlarning faoliyati tizimning shakllanishi va rivojlanishiga xalaqit bermasligi tushuniladi<sup>2</sup>. Yana bir ta`rifga ko`ra esa, xavfsizlik bu - konstitutsion, qonunchilik va amaliy choralar bilan kafolatlangan himoyalanganlik va shaxs, jamiyat va davlatning hayotiy muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan ta`minlanganligidir<sup>3</sup> - deb keltiriladi. Xavfsizlik ijtimoiy munosabatlar holati bo`lib, bunda shaxs, guruh, millat, davlatning mustaqil va tashqi bosimlardan holi tarzda o`zining ma`naviy, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy taraqqiyotini amalga oshiradi<sup>4</sup>.

<sup>1</sup> Qarang: Кортунов.А. Смоук Р. и др. Взаимная безопасность: новый подход к советско-американским отношениям /. – М.: Международные отношения. 1991. – С. 13.

<sup>2</sup> Заплатинский В. М. Терминология науки о безопасности. // Zbornik prispevkov z medzinarodnej vedeckej konferencie «Bezhecnostna veda a bezpecnostne vzdelanie». — Liptovsky Mikulas: AOS v Liptovskom Mikulasi, 2006,Ст 90-98.

<sup>3</sup> Политическая энциклопедия. В 2 т. Т. I Нац. Обществ. - науч Фонд; Рук проекта Г.Ю. Семигин. – М.: Мысль. 2000.- С.11.

<sup>4</sup> Социологическая энциклопедия. В 2т Т. I Нац. Обществ. - науч Фонд; Рук проекта Г.Ю. Семигин. – М.: Мысль. 2003.- С.45

**Xavfsizlik** – bu shunday holatki, bunda davlat o‘z milliy manfaatlarini keng tushunchada, ya’ni siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy, harbiy, ekologik sohalarda himoyalagan bo‘ladi: ommaviy qirg‘in qurollarini tarqatmaslik; o‘z fuqarolarining huquq va erkinliklarini himoya qilish va shuningdek xalq, jamiyat, davlat va xalqaro hamjamiyatning ma’naviy va intellektual qadriyatlariga bo‘lgan tahdidlarning oldini olish; ijtimoiy tizim va shu orqali shakllangan ijtimoiy munosabatlarga bo‘lgan tahdidlarning oldini olish va bartaraf qilish uchun shart-sharoitlarni tashkil etish va uning himoyasini ta'minlashdan iboratdir.

N. Diko tomonidan keltirilgan ta’rif birmuncha kengroq bo‘lib, xavfsizlik tushunchasining mohiyatini to‘laroq yoritishi mumkin: “xavfsizlik – bu xalqaro munosabatlarning, erkin dunyoning buzilishini, xalqlarning xavfsizligiga har qanday shaklda bo‘lmasin tahdid solinishini istisno qiluvchi holatdir”<sup>1</sup>. Bu ta’rifda xavfsizlik jarayon sifatida to‘liq yoritib berilgan bo‘lsa-da, uni ta’minlash shart-sharoitlari, omillari va shakllari yoritilmay qolgan.

Har qanday siyosiy-ijtimoiy kategoriya singari xavfsizlik tushunchasi ham kengayish yo‘nalishida o‘zgarib borgan. Bu shundan dalolat beradiki, jamiyat taraqqiyotining asosiy o‘lchovlaridan biri – bu milliy xavfsizlikni ta’minlash imkoniyatining bor-yo‘qligi yoki bo‘lmasa uni ta’minlashga qaratilayotgan munosabatdir<sup>2</sup>.

Yana bir guruh tadqiqotchilar xavfsizlikka ko‘proq tashqi xavf-xatar nuqtai nazaridan yondashadilar. Misol qilib Xavfsizlik atamasiga S.Toshevning quyidagicha ta’rifini keltirish mumkin: “Xavfsizlik-shaxs ijtimoiy guruhlar, jamiyat, davlat, sivilizatsiyaga tegishli muhim manfaatlarining ichki va tashqi tahdidlardan himoyalangan holatidir”<sup>3</sup>. V.I Mitroxin esa “xavfsizlik, shaxs, ijtimoiy guruhlar, davlat va jamiyat qadr-qimmatini, sha’ni, yashash muhitining umuman olganda sivilizatsiyaning himoyalangan holatidir”<sup>4</sup> deb ta’rif beradi. Turli

<sup>1</sup> Дико Н. Глобальный проблемы развития разума и гуманизация международных отношений. – М.: Международные отношения, 1990. – С.506.

<sup>2</sup> Возженников А.В. Национальная безопасность: теория, политика, стратегия. – М.: Прогресс. 2000. – С. 27

<sup>3</sup> Ўзбекистонда политология.-Т.,Шарқ ( 2001 йил 18октябрда Тошкент шаҳрида ўтказилган Республика илмий -амалий конференцияси материаллари), 2002.– С.174

<sup>4</sup> Митрохин В.И. Концептуальные основы стратегии национальной безопасности России. «Народы России: возрождение и развитие».- М., 1997 С.– 124.

xil adabiyotlarda Xavfsizlik bu “obyektning xavfsiz holati, xavf xatarlardan holiligi, vaziyatni yomon tarafga qarab o‘zgarib bo‘lmasligi”<sup>1</sup>, “tashqi xavflardan holis bo‘lishning real imkoniyati”<sup>2</sup>, dunyo xalqlari xavfsizligi yoki tinchligiga tahdid soluvchi turli xi omillardan holi etilgan xalqaro munosabatlardagi holati”<sup>3</sup> kabi ta’riflar keltiriladi. Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki aksariyat ta’riflarda asosiy mezon sifatida harbiy va iqtisodiy salohiyat ko‘rsatilganini kuzatish mumkin. “Xavfsizlik” atamasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirish natijalari shuni ko‘rsatadiki, aksariyat hollarda ushbu atama “shaxs, jamiyat va davlatning xatarlardan himoyalanganlik holati” sifatida talqin qilinadi. Shundan so‘ng xavfsizlik turlari to‘g‘risida fikr yuritiladi.

“**Xavfsizlik**” tushunchasi keng ko‘lamda 1940 yillar oxiri 1950 yillar boshida AQShda qo‘llanila boshlangan. O‘sha paytda bu atama sovuq urush davrida harbiy-fuqaroviy tadqiqotlar strategiyasi, texnologiyalarining kompleks sohasiga nisbatan qo‘llanilgan chunki o‘sha xalqaro munosabatlarda harbiy qarama qarshilik dominantga sohaga aylangan edi. Xavfsizlik tushunchasini qamrab olgan yana bir soha sovuq urush davrida davlat harbiy, iqtisodiy va boshqa resurslarni mobilizatsiya qilish faoliyati bilan bog‘liq. Shu sababli, davlat hokimiyati organlari radikal isloh qilindi. Xususan AQShda “*Milliy xavfsizlik to‘g‘risida*” gi Qonun qabul qilindi. Keyinchalik Mudofaa vazirligi, Markaziy Razvedka Boshqarmasi tashkil etildi. “Xavfsizlik” tushunchasi NATO strukturalada qo‘llana boshlanib, Yevropa va boshqa davlatlarda xalqaro munosabatlarning tadqiqot obyektiga aylandi.

Bugungi dunyoning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, va ekologik xavfsizlik holati xavfsizlikga bo‘lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga milliy , mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikga doir konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda. Xavfsizlik tizimida shaxs xavfsizligi muhim o‘rin egallaydi. Shaxs xavfsizligi muammosi insonning oliy ijtimoiy qadriyat sifatida anglab yetiladi.

<sup>1</sup> Периодический обзор ООН. 1991.-Т.,XIV.-№4. С. 96-97.

<sup>2</sup>Ушаков Н.А. Проблемы теории международного права. – М., Наука, 1988. №5. С.15.

<sup>3</sup> Дипломатический словарь. – М., Наука, 1985. Т.2.

Ushbu muammo xavfsizlikning barcha milliy, mintaqaviy va global darajalari bilan chambarchas bog`liq. Xavfsizlikni 3 xil ko`rinishlarda: milliy, mintaqaviy va xalqaro darajada o`rganish ommaviy tus olmoqda. **Milliy xavfsizlik** deganda fuqarolarning, jamiyatning va davlatning hayotiy muhim manfaatlari hamda milliy qadriyatlar va hayot tarzining ichki va tashqi tahdidlardan himoyasi tushuniladi<sup>1</sup>. Rus olimi Yu. Fedorov bu borada shunday yozadi: ... milliy xavfsizlik bizning nuqtai nazarimizda ushbu mamlakatning erkin, mustaqil va tinch rivojlanishi uchun tashqi shart sharoitlarni ta`minlashni bildiradi<sup>2</sup>. Davlat xavfsizligi milliy xavfsizlik tushunchalari bir xil ma`nolarni anglatadi.

Zamonaviy siyosatshunoslik fanlarida xavfsizlik tushunchasi va uning kategoriyalarni aniqlashda xavfsizlik prinsiplari ishlab chiqilgan. Quyida ularning asosiylari keltirilgan:

- Inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilinishga rioya qilish;
- Qonuniylik;
- Xavfsizlikni tanlash borasidagi choralarning mavjudligi;
- Xalqaro tashkilotlar, davlat hokimiyati organlari va fuqarolarning xavfsizlikni ta`minlash borasidagi munosabatlari va boshqalardan iborat.

Ma`lumki, xavfsizlikni ta`minlashda avvalambor unga tahdid solayotgan omillarni bartaraf etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda xavfni bartaraf etishning bir qator metodlari ham ishlab chiqilgan:

- Hujumni oldini olish (masofa saqlash, yon bosish, “niqoblanish”, kelishuv, bitim imzolash);
- Himoya tizimini yaratish, destruktiv harakatlarga yon bosish, immunitetni ishlab chiqish va mustahkamlash, tahdid, tajovuzlarning manbasini butunlay yo`q qilish<sup>3</sup>.

Xavfsizlik tushunchasi kimga nisbatan qo`llanishiga qarab uning obyektlari aniqlandi:

<sup>1</sup>Олейникова Е.А. Экономическая и национальная безопасность 2004 –С.34

<sup>2</sup> Жўраев С.Саидолимов С.Т. Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик ўқув қўлланма Т; 2007 – Б.5

<sup>3</sup> Атаманов, Г. А. Информационная безопасность в современном российском обществе (социально-философский аспект): Волгоград, 2006.

- Inson (shaxs huquq va erkinliklari);
- Jamiyat (moddiy va ma'naviy manfaatlari);
- Davlat (Konstitutsion tuzumi va uning mafkurasi);

Zamonaviy davrda xavfsizlikga bo'lgan tahdidlarning yangi turlari paydo bo'la boshladi. Bu esa o'z navbatida xavfsizlik masalasini ko'lamini kengaytirib, uni avvalo mintaqaviy keyin xalqaro darajaga olib chiqdi.

Insoniyat tarixan o'z boshidan katta sivilizatsiya jarayonlarini o'tkazdi. Geografik o'zgarishlar, demografik o'sishlar turli xil ehtiyojlarni yuzaga keltirdi. Bu ehtiyojlar turli kashfiyotlarga, ular esa hayot darajasi yaxshilanishiga olib keldi. Ammo bu butun dunyoga xos emas. Yer yuzida yashash darajasi juda past, qashshoq insonlar ko'pchilikni tashkil etadi. Demak, yaxshi hayot uchun kechayotgan kurashda kimdir g'olib, kimdir esa mag'lub. Hayot uchun kechayotgan aynan mana shu kurash xalqaro darajada xavf tug'dirmoqda va bu xavfga qarshi kurash xalqaro xavfsizlik sohasini vujudga keltirib, uning faoliyatiga asos bo'lmoqda. **Xalqaro xavfsizlik** - xalqaro munosabatlar tizimi; hamma davlatlar tomonidan rioya qilinadigan xalqaro huquqning prinsip va normalari; davlatlar o'rtasidagi janjalli masalalarni va kelishmovchiliklarni kuch va kuch ishlatish xavfi bilan bartaraf etishni istisno qilishga asoslangan. Xalqaro xavfsizlik prinsiplari quyidagilarni nazarda tutadi: hamma davlatlar uchun bab-baravar xavfsizlikni ta'minlash; harbiy, siyosiy, iqtisodiy va gumanitar sohalarda amaliy kafolatlarni yuzaga keltirish; har bir xalqning suveren huquqlarini soqsiz hurmat qilish; xalqaro tanglik va mintaqaviy nizolarni siyosiy yo'l bilan adolatli bartaraf etish; davlatlar o'rtasida ishonchni mustahkamlash; xalqaro terrorizmning oldini olishning samarali usullarini ishlab chiqish; genotsid, aparteid tugatish, fashizmsh targ'ib qilmaslik, diskriminatsiyaning har qanday shakllarini xalqaro amaliyotdan yo'qotish; qamal va sanksiyalardan (jahon hamjamiyati tavsiyalarisiz) voz kechish. Xalqaro xavfsizlikning ajralmas qismi BMT Ustavi bilan mustahkamlangan amaldagi kollektiv xavfsizlik mexanizmidir.

Xalqaro xavfsizlik har bir davrda turli omillarga: xalqaro aloqalarning rivojlanish yo'nalishlari va xususiyatiga, sivilizatsiya darajasi, ma'naviyat va shu



kabilarga bogʻliq boʻladi. Shaxs, sinf, jamoat tashkilotlari va xalqaro tashkilotlarning faoliyati Xalqaro xavfsizlikga jiddiy taʼsir koʻrsatadi. Oʻzbekiston Respublikasi jahonda, xususan, Markaziy Osiyoda xavfsizlik taʼminlanishiga katta hissa qoʻshib kelmoqda. Prezident I.A. Karimov tomonidan ishlab chiqilgan *"Mintaqaviy xavfsizlikdan xalqaro xavfsizlikni taʼminlash sari"* konsepsiyasi Xalqaro xavfsizlikni taʼminlashning yangi qoidasi sifatida jahon miqyosida tan olinmoqda.

Umumjahon tinchligi va xalqaro xavfsizlikni taʼminlash masalasini zamonaviy xalqaro munosabatlarda markaziy oʻrinlardan birini egallaydi. Uning asoslari BMT Nizomida oʻz ifodasini topgan hamda 1970-yil 16 dekabrda xalqaro xavfsizlikni mustahkamlash toʻgʻrisidagi Deklaratsiyada, BMT Bosh Assambleyasining 1986-yil 5-dekabrda va 1987-yil 7 dekabrda "Xalqaro tinchlik va xavfsizlikning yalpi tizimini yaratish" toʻgʻrisidagi qarorlarda belgilab berilgan yalpi xalqaro xavfsizlik konsepsiyasida shuningdek, "Xalqaro tinchlik va xavfsizlikni BMT Nizomiga muvofiq muhtakamlashga yalpi yondashuv" toʻgʻrisidagi 1988-yil 7 dekabr qarori rivojlantirilgan.

Har bir davlatning, xalqning yoki millatning oʻz milliy xavfsizligini taʼminlashni birlamchi sifatida koʻriladi. Milliy xavfsizlikni taʼminlashda davlatlar birinchi navbatda "umuminsoniy qadriyatlar" ga asoslangan boʻlmogʻi lozim. Yuqorida taʼkidlanganidek xavfsizlik milliy davlat chegarasidan chiqib global harakter kasb etayotgan paytda bir davlat harbiy qudrati bilan natijaga erishib boʻlmaydi. Bunda davlatlar va davlatlar guruhining oʻzaro birgalikdagi harakati, maʼlum ittifoqqa birlashib harakat qilishi samara beradi. Xavfsizlikga EHHK ishtirokchilari 1975-yil 1-avgustdagi Yakunlovchi aktda "... vaziyatni, xavfsizlikni saqlashni tahdid ostiga qoʻyadigan darajada yomonlashtirish mumkin boʻlgan har qanday harakatlardan saqlash" deb taʼrif beradilar<sup>1</sup>.

Xulosa qilib aytganda, xavfsizlik va barqarorlikni taʼminlash masalasi insoniyat taraqqiyotining barcha bosqichlarida jamiyatning barqaror rivojlanishi uchun zarur boʻlgan omillar ichida ustuvor hisoblangan holda markaziy oʻrin

<sup>1</sup> Qarang. Жўраев С.СаидолимовС.Т Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик. Ўқув қўлланма Т;2007 –Б. 6

egallaydi. Xavfsizlikni “davlat markaz kuchlari” emas balki, “o‘zaro aloqalari” belgilab beradi. Xozirgi vaqtda xalqaro, mintaqaviy, milliy xavfsizlik va barqarorlikni ta`minlash masalalari o‘zaro chambarchas bog‘liqqki agar mavjud tahdidlar ko‘lamini hisobga oladigan bo‘lsak, alohida bir davlatning o‘z milliy xavfsizligini mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikni uzilgan holda amalga oshirish o‘ta mushkuldir. Shu boisdan ko‘p tomonlama hamkorlik muhim ahamiyat kasb etadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek, “Hozirgi sharoitda, umumiy xavfsizlikni ta`minlash va muvozanatga erishish manfaatlari nuqtai-nazaridan, yangi mustaqil davlatlarning xavfsizligi va barqaror rivojlanish muammolari ulkan ahamiyat kasb etmoqda. Yer yuzida vaziyat va kuchlar nisbati shiddatli o‘zgarib bormoqda. Yangi mustaqil davlatlar maydonga chiqmoqda. Bu esa hozirgi kunda davlatlar va xalqlarning barqarorligini ta`minlash uchun yangicha yondoshuvlarni izlab topishni, XXI asr arafasida xavfsizlikning yangicha modellarini ishlab chiqishni tobora qattiq talab qilmoqda”<sup>1</sup>.

Mintaqaviy miqyosda yoki jahon doirasida bo‘lishidan qat’iy nazar, xavfsizlikni ta`minlash maslasi har doim dolzarbligi bilan birinchi darajadagi muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mintaqaviy xavfsizlikni ta`minlamay turib, jahon xavfsizligiga, barqarorligiga va tinchlikga erishib bo‘lmaydi.

---

<sup>1</sup> Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва таракқиёт кафолатлари. – Т.: Ўзбекистон, 1997. – Б. 7.

## II BOB. ZAMONAVIY DAVRDA XITOIY VA KOREYA MUAMMOSI

### 2.1 Koreya yarim orolida xavfsizlik masalalarining o'ziga xos xususiyatlari

Koreya yarim oroli Osiyoning sharqiy qismida, sharqda Yapon dengizi, janubda Koreya bo'g'ozi, g'arbda Sariq dengizi o'rtasida joylashgan yarim oroldir. Maydoni 220.8 ming kv kmni tashkil qiladi. Yarim orolda ilk inson izlari paleolit davriga borib taqaladi. Koreyadagi ilk davlat sifatida manbalarda Qadimgi Choson davlati keltiriladi. Yarimorolda tarixan yana bir qancha davlatlar bo'lgan. Hususan, Silla, Pekche, Koryo, Choson, Puyo kabilarni misol qilib keltirish mumkin. Ulardan Koryo, Pekche va Silla davlatlari koreys tarixida o'ziga xos o'rin egallagan<sup>1</sup>. Bu davlatlar avvalo qabilalar birlashuvi natijasida vujudga kelgan. Bu davlatlar davri Koreya tarixida "Uch qirollik" davri deb ataladi. Deyarli bir xil vaqtda paydo bo'lgan bu 3ta davlat yarimorolda gegemonlik uchun doimo o'zaro kurash olib borganlar. Oxir oqibatda Silla davlati ustunlik ko'rsatib qolgan ikki davlatni o'ziga bo'ysundirib yagona davlat barpo etgan. Keyingi davrlarda Koreya tarixida Choson Koguryo kabi markazlashgan davlatlar paydo bo'ladi. Koreya yarim oroli o'zining qo'shni davlatlari Yaponiya, Xitoy ta'siriga tushib qolgan. Xususan Xitoyda Yuan imperiyasi davrida, manjurlar imperiyasi davrida Koreya vassalga aylangandi, 1910-yilda Koreyada Yaponiya o'z e'tiborini qarata boshladi va Koreyada yapon mustamlakachiligi davri boshlandi.

Koreyaning Yaponiya ta'sir ostidaligi davri Ikkinchi Jahon urushiga qadar davom etdi. Ikkinchi jahon urushi arafasida Koreyada Yaponiya mustamlakachiligiga qarshi kurashlar, qozg'olonlar avj olgan davr bo'ldi. Koreys xalqi o'z mustaqilligi uchun tinmay kurash olib borardi. Bu esa gegemon davlatlarni o'ziga jalb etdi. Koreyaning Yaponiya mustamlakachiligidan mustaqil bo'lishi XXasrda Koreya tarixida muhim voqea bo'ldi. Janubiy Koreya manbalarida Koreya koreys millati vatanparvarlari, fidoiylari xizmatlari natijasida

<sup>1</sup> Торкунов А.В. История Кореи. М.: Московский Государственный Институт международных отношений 2003 С. 71.

ozod bo'lgani yoritilsa, rus manbalarida Qizil armiya yordamida, Amerika manbalarida esa Aqsh harbiy qo'shini yordamida mustaqil bo'ldi deb yoritiladi.

Ikkinchi jahon tugagandan so'ng buyuk davlatlar Aqsh va Sobiq Ittifoq o'z e'tiborlarini Koreya yarim oroliga qaratdilar. 1945-yilgi Yalta konferensiyasidagi bitimga ko'ra Aqsh va Sobiq Ittifoq qo'shinlari 38-parallel chiziq bo'ylab harbiy harakatlarni amalga oshirishlari lozim edi. Aynan mana shu 38-parallel chegara chizig'i Koreya yarim orolida ikki xil tuzumdagi koreys davlatlarini paydo bo'lishiga olib keldi.

Koreyaning keyingi tarixida 1948-1950 yillar muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davr qisqa bo'lsada, Koreya tarixida kutilmagan tarixiy hodisa ro'y berdi. Bir necha mingyilliklar mobaynida bir butun bo'lib yashab kelayotgan millat ikkiga bo'lindi. Sovuq urush davrida Koreyada vaqtinchalik hukumat tuzish masalasi bo'yicha sovet-amerika Komissiyasi ta'sis etiladi. Ammo Komissiya yagona Koreya davlatini qayta tiklash masalasida kelisholmay qolishi natijasida Sobiq ittifoq Shimolda va Aqsh janubda tuzumni mustahkamlashga kirishdilar. Buning natijasida Janubda 1948-yil 10-mayda saylovlar o'tkazil<sup>1</sup>. BMT tomonidan saylovlar qonuniy deb topildi. 1948-yil 15 avgustda Koreya Respublikasi tashkil topdi. Keyinchalik Shimolda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi tashkil topganligi e'lon qilindi. Shu tariqa Koreya yarim orolida ikki xil tuzumdagi koreys davlati vujudga keldi. Ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar shu darajada keskinlashdiki KXDR va Koreya Respublikasi o'rtasidagi fojeaviy urushga olib keldi.

Koreya urushi 1950-1953-yillarni o'z ichiga olgan bo'lib ikki davlat o'rtasidagi fojeaviy oqibatlarga olib keldi. Bu urushda nafaqat KHDR va Koreya Respublikasi balki gegemon davlatlar Aqsh, Sobiq Ittifoq, Xitoy Xalq Respublikasi ham bevosita ishtirok etgandi. Koreya urushi tez orada Jahon hamjamiyati e'tiboriga tushdi.

Urushning birinchi bosqichi Koreya Milliy armiyasining Koreya Respublikasi hududi bo'ylab chuqur kirib borishi bilan boshlandi. KXDR harbiy

---

<sup>1</sup> История Кореи. Т. 1-2. М., 1974 С. 136

qo‘mondoni rejasiga ko‘ra, Koreya yarimorolining janubiy qismidagi harbiy harakatlar tez 50 kunda, har kuni janubga tomon taxminan 10km harakatlanib tugallanishi kerak edi. Shu tariqa 1950-yillar o‘rtalariga kelib janubdagi yirik port shaxar Pusan egallanishi mo‘ljallangan edi. Va shu tariqa Koreya birlashar edi. Haqiqatan, mazkur rejaning bu bosqichda bir qismi amalga oshgan edi.

Urushning ilk kunlaridanoq Janubiy Koreyaning harbiy salohiyati sustligi aniq edi. U mustaqil tashqi yordamisiz Koreya Milliy Armiyasiga qarshi tura olmasligi tez orada ma‘lum bo‘ldi. Shu sabab, urushga Janubiy Koreya tomonidan Aqsh qatnashdi. Aqsh Janubga harbiy yordam cho‘zdi Aqsh tashabbusi bilan BMT Xavfsizlik Kengashi Shimoliy Koreyani “Tinchlikda buzganlikda” ayblab rezolyutsiya qabul qildi. Bundan tashqari Xavfsizlik Kengashi BMT qo‘shinlarini Koreyaga jo‘natish to‘g‘risida qaror qabul qildi. Janubiy Koreya tomonidan 16 davlat harbiy kontingenti urushda qatnashdi<sup>1</sup>.

BMT harbiy kontingentining urushga jalb etilishi Koreya urushining ikkinchi bosqichini boshlab berdi. 1950-yil 13 sentabrida Inchxon port shaxarga BMT qo‘shinini dengiz desanti kelib tusha boshladi:230 kema va 400 samolyotda 45ming askar. KMA ning 3000 askari Inchxonda edi. Shu sababli endi ustunlik Janubda edi. Ammo urushga Xitoy Xalq Respublikasining kirishi urushning borishini o‘zgartirib yubordi va urushning uchinchi bosqichi boshlandi. 1950-yil 25-oktyabrda Xitoy milliy ozodlik armiyasi doimiy qismidan 1 mlnga yaqin xitoy milliy ko‘ngillilar bo‘limi Shimoliy Koreyaga keldilar. Bu qo‘shinga marshal Pen Dahuay qo‘mondonlik qildi.

XXR 1950-yil kuzidayoq KXDRga yordam berishga tayyor edi va bu haqida XXR Tashqi Ishlar Vazirligi rasman e‘lon qilgan edi. Chunki bu paytda Amerika havo samolyotlari 27-avgustdan-24-oktabrgacha 200marta XXR harbiy hududi buzib, uchib o‘tilgan<sup>2</sup>. Qolaversa Janubiy Koreya va BMT qo‘shinlari Xitoy chegarasiga jiddiy xavf sola boshlagan edi. Tez orada Amerika harbiy qo‘shini

<sup>1</sup> Торкунов А.В. История Кореи. М.: Московский Государственный Институт международных отношений (РОССПЭН), 2003 □□ стр 340

<sup>2</sup> Курбанов О.С. Курс лекции по истории Кореи с древности до конца XXI вв СПб Издательство Санкт-Петербургского Университета –С. 455

Janubga tomon siqib chiqarildi. 1951-yil o`rtalaridan boshlab muzokaralar boshlandi va bu qariyb 2 yil davom etdi.

Koreya urushi ikki davlatga birdek katta zarar keltirdi. KXDR ham Koreya Respublikasi ham o`z manbalarida g`alaba qilganliklari aytib o`tiladi. Urush tugashi dan so`ng ikki yonma-yon davlatlar turli xil tuzumdagi davlatlarga aylandilar. Tomonlar o`rtasidagi shartnoma faqatgina vaqtinchalik tinchlik ta`minladi. Ammo ikki koreys davlati haligacha bir-birini tan olmaydilar. Ikkala davlat ham butun Koreya yarim orolini o`z hududlari deb qaraydilar. Buning natijasida esa Sharqiy Osiyoda doimiy beqarorlik paydo bo`ldi. Koreya urushi davlatlar o`rtasidagi chegarani yanada mustahkamladi. Fuqarolar majburan Janubdan shimolga va aksincha shimoldan janubga migratsiya qilindi.

Urushdan so`ng Koreya Respublikasida yangi tarixiy davr boshlandi va bu 1961-yilga qadar davom etdi. Bu davr Koreya Respublikasi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan shu davrda birinchidan, koreys xalqi o`z hukumat raxbariga nisbatan norozilik namoyish etishdi. Bu esa koreys xalqining milliy va siyosiy o`z o`zini anglaganini anglatar edi. Ikkinchidan esa, qiyin iqtisodiyotga qaramay aynan shu davrda iqtisodiy rivojlanish va bozor munosabatlari asosi qo`yila boshlandi. Li Sin Man rahbarligidagi Birinchi Respublika avvaliga demokratik bo`lgan bo`lsa bora bora avtokratik boshqaruvga aylanib borgandi. Li Sin Man hokimiyatni ko`proq ushlab turish maqsadida ko`plab choralarni qo`llay boshladi. Bu esa uning xalq oldida obro`sini tushishiga olib keladi. Birinchi Respublika 1960-yilga qadar davom etdi. 1960-yilda Janubiy Koreyani norozilik hokimiyati chulg`ab oldi. Xalq amaldagi prezident hokimiyatiga norozilik kayfiyatida edi. Buning natijasida Li Sin Man Koreyani tark etadi va Koreya tarixida ikkinchi Respublika boshlanadi<sup>1</sup>.

Ikkinchi Respublika e`lon qilinishi, hokimiyat almashinuvi ham Janubiy Koreyadagi vaziyatni o`zgartirmadi. Demokratik Partiyaning o`zi ikkiga bo`linib

---

<sup>1</sup> Воронцов А. В. Республика Корея: социально-экономическая структура и торгово-экономические отношения с СНГ. М., 1998. С. 64

ketdi. Bunday vaziyatda mamlakatda birin ketin boshqa partiyalar paydo bo'la boshladi. Hattoki mamlakatda sotsializmni qo'llovchi Koreya sotsial partiyasi o'z faoliyatini boshladi. 1960-yillarda KXDR tomonidan Koreyani birlashtirish g'oyalari ham ilgari surila boshlagandi. 1960 yillardan boshlab Janubiy Koreyada yangi siyosiy kuch paydo bo'ldi bu siyosiy kuch Janubiy Koreyaning har tomonlama iqtisodiy rivojlanishida katta rol o'ynadi. General mayor Pak Chon Xi hokimiyat tepasiga kelgach Uchinchi Respublikani e'lon qildi. 1963-yilda Pak Chon Xi Koreyaning Prezidenti etib saylandi. U tashqi siyosatda Yaponiya bilan yaqinlashish siyosatini olib bordi. Uning fikricha Yaponiyani bilish Koreyani taraqqiyotiga xizmat qiladi.

Umuman olganda Koreya tarixida jami 6 ta respublika e'lon qilingan. Uzoq yillik tarixi mobaynida Janubiy Koreya qoloq, kambag'al davlatdan bugungi kunda iqtisodiy rivojlangan industrial davlatga aylandi. 1997-1998 yilgi Osiyo moliyaviy inqirozi paytida YAIM 6,9% ga qisqarib ketgandi. 1999-2000 yillarda 9%qayta tiklandi. Inqirozdan so'ng mamlakatda bir qator islohotlar amalga oshirildi.O'z navbatida xorij sarmoyasi uchun mamlakat "ochildi". 2000-yilga kelib Janubiy Koreya kemasozlikda 1-o'rin, kompyuter xotiralari ishlab chiqarishda 3 o'rin, avtomobil ishlab chiqarishda 5 o'rnlarni egallab olgandi.

Janubiy Koreyaning eng muhim hamkori Amerika Qo'shma Shtatlari hisoblanadi. Aqsh Janubiy Koreya uchun yarim orolda o'z xavfsizligi kafolatidir. 1954-yilda ikki mamlakat o'rtasida o'zro mudofaa to'g'risidagi shartnoma imzolangan. Unga muvofiq tomonlar yarim orolda o'zaro qo'mondonlik asosida harbiy faoliyat olib borish , mintaqada xavfsizlik maslasida konsultatsiya o'tkazish va shu boshqa majburiyatlarni kelishib olgan. Aqsh Janubiy Koreyaning yirik savdo hamkori hisoblanib, Koreyaning umumiy savdo aylanmasining 20% Aqshga to'g'ri keladi. Koreyaning navbatdagi hamkori Yaponiyadir. Aynan Yaponiyaning ko'magida Koreya Respublikasi iqtisodiy portlashni amalga oshirdi. 1998-yil Yaponiya Koreya yarim orolida Xavfsizlik masalasidagi ikki tomonlama (Seul-Tokio keyinchalik uchtomonlama Washington-Seul-Koreya) konsultatsiyasi a'zosi

bo‘ldi. Va nihoyat Koreyaning 3 yirik hamkori Xitoy Xalq Respublikasidir. Xitoy bilan aloqalar 1992 yilda o‘rnatilgan.

Koreya Xalq Demokratik Respublikasi mustaqil davlat bo‘lib shakllangach avvalo Sobiq Ittifoq bilan yaqin munosabatda edi. KXDR asosiy hamkori Sobiq Ittifoq bo‘lib u har tomonlama Shimolni qo‘llab quvvatlagan edi. Koreya urushidan so‘ng Phenyanda Markaziy Qo‘mitaning IV yig‘ilishi bo‘lib o‘tadi. Unda davlatning kelgusida qayta tiklash g‘oyasi ishlab chiqildi. Birinchi bosqichda, 1953-yilga qadar milliy xo‘jalikni rivojlantirishga tayyorgarlik ko‘rishi kerak edi. Ikkinchi bosqich 1953-1956-yillarni qamrab oladi. U “Milliy xo‘jalikni urushdan so‘ng qayta tiklash va rivojlantirishning 3 yillik rejasi” yordamida nazorat qilinishi ko‘zda tutilgan edi<sup>1</sup>.

1957-yildan boshlab esa KXDR iqtisodiy qurilishning uchinchi bosqichiga yangi 5 yillik rejaga o‘tishi ko‘zda tutilgan edi. Janubiy Koreya manbalariga ko‘ra aynan mana shu rejalar KXDRning iqtisodiy strategiyasida muhim rol o‘ynadi. Bu o‘z navbatida mamlakatning metallurgiya, energetika, mashinasozlik va mudofaa sohalarning rivojlanishiga sabab bo‘ldi. 1954-1956-yillardagi uch yillik reja muvaffaqiyatli amalga oshirildi. Mamlakat sanoat ishlab chiqarishi 1,5 baravarga o‘tdi, oziq ovqat ishlab chiqarish 1,2 baravarga o‘tdi. Uch yillik reja asosida 240ta muassasa qayta tiklandi 80 ta yangi muassasa qurildi. 1953-yilga nisbatan ish haqi 158% ga o‘tdi. Uchyillik reja 2 yil 8 oyda amalga oshirildi. Shimoliy Koreya adabiyotlarida bu muvaffaqiyat Kim Ir Senning oqilona rahbarligi va koreys xalqining qahramonona harakati bilan bog‘lanadi. Rus manbalariga ko‘ra, Sobiq Ittifoq yordamida amalga oshirildi deb keltiriladi. Keyingi 1960-1970 yillarda mamlakat Sobiq Ittifoqi va Sharqiy Yevropa mamlakatlari ko‘magida amalga oshirilgandi.

Sovuq urush nihoyasiga yetgan bo‘lsa ham ikki davlat o‘rtasida harbiy sohada “qurollanish poygasi” boshlanib ketdi. KXDR 1966-yildan boshlab, harbiy sohani modernizatsiya qilish boshlandi. Davlat bujetining yarmidan ko‘pi harbiy sohaga ajratildi. Koreya Respublikasi ham KXDRdan qolishmasdan qurollanishga

---

<sup>1</sup> История Кореи. Т. 1-2. Корейская Народная Республика М., 1974 С. 111.



urg'u berdi. 1965-1969- yillarda Harbiy harajatlar 3 barobariga oshirildi. Bu Amerika ko'magida amalga oshirilgandi.

Keyingi davrlarda ikki mamlakat o'rtasida demilitarizatsiya qilingan hududlarda bir qancha to'qnashuvlar ro'y berdi. BMT ma'lumotlariga ko'ra, Koreya urushi tugagan davrda mamlakatlar o'rtasidagi qurolli to'qnashuvlar soni yuqori darajaga yetgan. 1966-yilda qurolli to'qnashuvlar soni 50ta, 1967-yilda 829, 1968- yilda 718 tani tashkil etgan<sup>1</sup>.

Albatta, ikki davlatda o'zaro birlashish g'oyalari yo'q emasdi. KXDR va Koreya Respublikasi alohida birlashish konsepsiyalarini ilgari surganlar. Xususan, Koreya Respublikasi Prezidenti Ro U De 1989-yilda "Milliy jamiyat" eb ataluvchi g'oyasini ilgari surdi. Unga ko'ra Prezident Shimol va Janub uchun umumiy boshqaruvini taklif etardi: Prezidentlik Kengashi, Vazirlar Kengashi va iqtisodiy, gumanitar-madaniy, siyosiy komitatlar tashkil qilish. "Milliy jamiyat"ning yakunlovchi maqsadi saylov yordamida yagona Koreya davlatini yaratishdan iborat edi. Bu g'oyaning ajralib turuvchi jihati shunda ediki, ikki davlat birlashganda ham ayrim mustaqilligini saqlab qolishlari mumkin Britaniya Hamdo'stligi kabi. Mazkur g'oya bir muncha vaqt ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Shimol bilan siyosiy, iqtisodiy va boshqa sohalarda kelishuvlar imzolandi. Eng muhimi, Koreya yarim oroli yadrodan holi zona ekanligi kelishib olindi. Davlat rahbarlari uchrashuvlari ham tashkil etilgandi. Ammo davlatlar bir biriga bo'lgan dushmanlikni yo'qota olmadilar, bir-biriga ishonolmadilar bu esa Koreyani birlashtirishni yanada ortga surdi. Keyingi yillarda Koreya yarim orolida qurollanish va harbiy soha bilan bog'liq muammolar paydo bo'la boshladi. Va bu nafaqat Koreyaga, Balki Shimoliy-Sharqiy Osiyo mintaqasi, dunyo hamjamiyatiga salbiy ta'sir ko'rsata boshladi. Koreyadagi quyidagi muammolar yuzaga kela boshladi:

Koreyada Raketa texnologiyalarni chegaralash muammosi - KXDR tomonidan katta radiusli raketalar ishlab chiqarishi bilan boshlandi. 1993-yil may oyida KXDR uchish uzoqligi 1ming km ga ega bo'lgan "Nodon-1" raketasini

<sup>1</sup> Курбанов О.С. Курс лекции по истории Кореи с древности до конца XXI вв СПб Изд-во Санкт-Петербургского Университета –С. 433

sinovdan o'tkazdi va uchish uzoqligi 2ming kmni tashkil etilishi mo'ljallangan "Nodon 2" ni ishlab chiqarishga tayyorgarlik boshlandi<sup>1</sup>. 1998-yilda esa "Kvanmenson" sun'iy yo'ldoshini kosmosga chiqarishni e'lon qildi. Shimoliy Koreyaning raketa texnologiyalarining yu'ori darajaga chiqishi Phenyanning dunyoning istagan nuqtasini urishga mo'ljallangan qit'alararo raketa yaratish istagi borligini anglatardi.

1999-yil Vashington ma'muriyati KXDR hukumatidan raketa ishlab chiqishni to'xtatishini talab qiladi. AQSh va KXDR o'rtasida muzokaralar boshlanadi. Ammo muzokaralar kutilgan natija bermaydi. 2000 yilda V.V Putinning Phenyanga tashrif chog'ida KXDR raketa ishlab chiqarishni to'xtatishiga tayyorligini ma'lum qildi.

Keyingi davrlarda boshlab yarimorolda "Yadroviy xavfsizlik" masalasi paydo bo'la boshladi. O'tgan asrning 60-yillaridan boshlab KXDR va Koreya Respublikasida yadroviy qurol yaratishga qiziqish paydo bo'ldi. Buni amalga oshirishda KXDR birinchilardan bo'lib harakatni boshladi. 1963-yilda KXDR yadroviy qurollarni sinovdan o'tkazishni taqiqlash to'g'risidagi Moskva shartnomasiga qo'shilishdan bosh tortadi. KXDR yadroviy dasturi o'z bazasida amalga oshirila boshlandi. Sobiq Ittifoq yordamida KXDR hududida 8 megavattlik tadqiq qilish reaktori qurildi. Shu sababli 1968-yilda KXDR Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi xalqaro shartnomaga qo'shilmadi(MAGATE). 1988-yil Seuldagi Olimpiada o'yinlari paytida Shimoliy Koreya yadroviy qurolni ishlab chiqarishda taxmin qilinib MAGATE komissiyasi tomonidan tekshirilib, BMT Xavfsizlik Kengashiga taqdim etildi. Natijada , Shimoliy Koreyaga sanksiyalar belgilandi.

Janubiy Koreya esa Shimolga qaraganda kechroq yadroviy qurolni ishlab chiqarishni boshladi. Ammo Koreya Respublikasi yadroviy texnologiyalarda jadal sur'atlarda rivojlana boshladi. Shimoldan farqli ravishda 1968-yilda Yadroviy

---

<sup>1</sup> Шилин А.А. Ядерная программа КНДР // <http://www.armscontrol.ru/course/>

qurllarni tarqatmaslik shartnomasiga qo`shildi va 1975-yilda ratifikatsiya qildi. 1978-yilda birinchi 600 megavattlik atom elektr stansiyasi ish boshladi.

Koreya muammosining xalqaro aspekti shunda ko`rinadiki, yarimoroldagi holat va uning rivojlanish tendensiyasi qo`shni davlatlar manfaatlarini va dunyo hamjamiyatini jalb etadi. Koreya yarimorolining geostrategik joylashuvi har doim tashqi kuchlarning e`tibori markazida bo`lgan. Ayniqsa bundan Koreya yarim oroliga chegaradosh bo`lgan davlatlar XXR, Yaponiya va Rossiya ko`proq manfaatdordirlar.

Bugungi kunda ham mazkur muammo o`z yechimiga ega emas. Xavfsizlik masalasi dolzarb ahamiyat kasb etib turibdi. Xususan, Shimoliy Koreya yadroviy dasturi bugunda jahon hamjamiyati diqqat markazidadir. Zamonaviy davrlarda ham KXDR va Koreya Respublikasi o`rtasida qurlli to`qnashuvlar, mojarolar uchrab turadi. Shimoliy Koreya tomonidan Janubiy Koreyaga raketa uchirish xavfi ham bor. So`nggi yillarda ikki davlat o`rtasidagi yirik harbiy voqea 2010-yilda sodir bo`lgan. 2010 yil 26 oktabrda Sariq dengizda KXDR chegarasiga yaqin hududda "Chxonan" kemasi qattiq portlash natijasida cho`kib ketadi. Sabablari aniqlanmagan bo`lsada Seul bunda Shimolni aybladi. Bortda 104 odam bo`lgan, 46 dengizchi halok bo`ldi<sup>1</sup>. 2010 yil noyabr oyida navbatdagi harbiy to`qnashuv bo`lib o`tdi. Shimoliy Koreya Yonpendo orolini o`qqa tusha boshladi. Bu janubiy Koreya harbiy mashg`ulotlarga qarshi qaratilgan edi. O`z navbatida Janubiy Koreya ham javob qaytardilar.

90-yillardagi xalqaro vaziyat Koreya davlatlarining birlashishi g`oyalarning ommalashishiga olib keldi. Bu xalqaro siyosiy inqiroz ya`ni Sobiq Ittifoqning parchalanishi bilan bog`liq edi. Buning oqibatida KXDR eng muhim savdo, Siyosiy va iqtisodiy hamkorini yo`qotgan edi.

Koreyaning birlashishidagi asosiy muammo bu qay tariqa yuz beradi? Ma`lumki, davlatlar birlashishi albatta koreys xalqining xoxish va irodalariga bog`liq. Lekin Koreyaga qo`shni davlatlarning tinchlik bilan boshlangan birlashish g`oyasi kutilganidaek tinchlik bilan tugallanishiga, yagona Koreya barqaror va

---

<sup>1</sup><http://pro-che-rk.livejournal.com>

xavfsiz bo‘lib shakllanishiga shubha bilan qaramoqdalar. Koreyaning geostrategik joylashuvi Koreya mustaqul va betaraf yagona davlat bo‘lsa ham uning xavfsizligini haqiqiy kafolatlarini bermaydi. Kuchli yagona Koreya mintaqadagi kuchlar muvozanatiga ta‘sir etishi mumkin, Yaponiya va Xitoy o‘rtasida bufer rolini o‘ynashi va ehtimol mintaqada yangi ko‘ptomonlama hamkorlikning paydo bo‘lishiga xizmat qilishi mumkin. Ammo shu o‘rinda ham ta‘kidlab o‘tish lozimki, agar Janub Shimol bilan yagona davlat uchun integratsiyani amalga oshirmoqchi bo‘lsa avvalo Seul uchun iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va psixologik islohotlar qilishi lozim bo‘ladi. Bu davr mobaynida resurslartashqi siyosatga, mudofaaga yo‘naltirilishi mumkin.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Koreya yarim orolidagi vaziyat davlatlarning tashqi davlatlar ta‘siriga tushib qolganidan dalolat beradi. Koreya yarim orolidagi xavfsizlik masalasi shunchalar chigallashganki, uni bir maromda ushlab turmasa nafaqat mintaqaga balki xalqaro xavfsizlikga ta‘sir o‘tqazishi mumkin. Xavfsizlik masalasi ikki koreys davlatining o‘zaro aloqalariga bog‘liq. Koreyaning birlashish g‘oyalari amalga oshish ehtimoli yuqori bo‘lmasa-da, davlatlar o‘rtasida doimiy aloqa, yarimorolda tinchlik o‘rnatishga intilish mumkin.

## **2.2 XXR tashqi siyosatida Koreya davlatlari**

1990-yillar o‘rtalarida Xitoy tashqi siyosiy masalalarini hal etish bo‘yicha yangi yondashuv paydo bo‘ldi. Va bu Xitoyning Xavfsizlikning yangi konsepsiyasi, Rivojlanishiga yangicha yondashuv va barqaror dunyo Konsepsiyasilarida aks etgan bo‘lib “ Yangi diplomatiya ” nomini oldi. Yangi diplomatiyaning asosini Den Syaopinning 24 ieroglif strategiyasi tashkil qildi. U quyidagilar aks etgandi: “sovuqqonlik bilan kuzatish, pozitsiyani mustahkamlash, o‘zgarishlarga qat‘iylik bilan ta‘sir etish, o‘z imkoniyatlarini yashirisho ‘ziga e‘tiborni jalb qilmaslik, hech qachon lider bo‘lmaslik, aniq ishlarni amalga oshirish”<sup>1</sup>. Tadqiqotchilar va ekspertlar mazkur siyosat o‘zida geografik aspektiga

<sup>1</sup> Мамонов М. Система внешнеполитических приоритетов современного Китая. Глава в кн.:

ko‘ra qo‘shni davlatlar bilan chegara muammolarni hal qilishni o‘z ichiga olgan yaxshi qo‘shnichilik siyosati deb talqin qilinadi<sup>1</sup>.

Xitoy tashqi siyosatini G‘arb manbalarida iqtisodiy diplomatiya<sup>2</sup> sifatida talqin qiluvchi harakteristikani ham ko‘rishimiz mumkin. Bunda harbiy bo‘lmagan iqtisodiy aloqalar yordamida mamlakatni egallab olishga intilish tushuniladi. Haqiqatan, Xitoy tomonidan muhim strategik qabul qilingan qarorlardan biri iqtisodiy globallashuvda ishtirok etishga intilish, boshqa davlatlarga harbiy emas balki iqtisodiy kirib borishdir. Bundan tashqari so‘nggi yillarda Xitoy iqtisodiyoti umumiy dunyo dinamikasiga nisbatan tez sur‘atlarda rivojlanishi uning boshqa davlatlar ayniqsa qo‘shni davlatlari bilan tor doirada iqtisodiy aloqalar rivojlanishiga turtki bo‘ldi.

Yaxshi qo‘shnichilik siyosati, iqtisodiy diplomatiya va ma‘suliyatli tashqi siyosat mazkur uchta konsepsiya “yangi diplomatiya”ning asosini tashkil qiladi. Uning quyidagi aspektlarini belgilab o‘tish mumkin: birinchidan, xitoy modernizatsiyasi uchun qulay artof-muhit barqaror va mustahkam yaxshi qo‘shnichilik belbog‘ini shakllantirish; ikkinchidan, mintaqa davlatlari, ham xalqaro munosabatlarning boshqa aktorlari bilan noharbiy vositalar orqali munosabatlarni ayniqsa savdo-iqtisodiy munosabatlarni shakllantirish; uchinchidan, tashqi siyosiy maqsadlarni qabul qilishni ichki rivojlanishning kun tartibiga qo‘yish. Ko‘plab tadqiqotlar fikricha Xitoy Shimoliy-sharqiy Osiyoda hukmron qiluvchi ikkinchi davlatga aylangan. Ayrim sinologlar Xitoyning “O‘rta davlat falsafasi uyg‘onganligini va mazkur mintaqada xalqaro munosabatlarning “xitoylashtirish” modelini yaratishga urinishlari haqida fikr bildirmoqdalar.

Koreya yarim oroli bevosita Xitoyga yaqinda joylashgan bo‘lib, tarixan Xitoy bilan o‘zaro bog‘liq. Bir necha yillik tarix davomida Koreya yarim oroli Xitoy diplomatiyasi qaragan hudud bo‘lib kelgan. Xitoy har doim Koreya yarim oroliga to‘g‘ridan to‘g‘ri va chuqur ta‘sir o‘tkazib kelgan. Koreya davlatlariga

---

Современная мировая политика. Под ред. А.Д. Богатурова. М.: Аспект Пресс, 2009. С. 418.

<sup>1</sup> Zhang Xinjun. China’s “Peaceful Rise”, “Harmonious” Foreign Relations and Legal Confrontation. *Eurasia Review*.// <http://www.eurasiareview.com/201006123096/chinas-peaceful-rise-harmonious-foreign-relationsand-legal-confrontation.html>

<sup>2</sup>Qarang; Миронова И.С. Корейская проблема в свете дипломатии Китая // Индекс безопасности №4 (95) Том 16. С. 116

Xitoy madaniyati ham ta'sir o'tkazgan, Koreya Xitoydan ieroglifika, konfutsiychilik din kabilarni o'zlashtirib o'z madaniyatini yaratgan. Koreya qirolligi esa rasman 1895-yilga qadar Sin imperiyasi tarkibida bo'lgan. XIX asr oxiridan Sin imperiyasi inqirozga yuz tuta boshlagach bu hududga Aqsh, Yaponiya va boshqa G'arb davlatlari kirib kela boshladi.

XX asrdagi bo'lib o'tgan voqealar butun dunyoni tubdan o'zgartirib yubordi. Va Shimoliy sharqiy Osiyoda ham katta o'zgarishlar ro'y berdi. Ammo shunga qaramay, Pekinning Koreya yarim oroliga bo'lgan munosabati saqlanib qoldi. Xitoyning Koreya yarim orolidagi siyosati pragmatizmga asoslangan bo'lib, barqaror tinchlikni saqlash va siyosat va iqtisodiyotni ajratish. Bu shuni anglatadiki, XXR har doimgidek Shimoliy Koreyani siyosiy qo'llab quvvatlaydi, Janubiy Koreya bilan esa iqtisodiy aloqlarni amalga oshiradi.

Koreya yarim oroli avvalo Pekinga o'z xavfsizligi nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi. Keyingi o'rinlarda esa iqtisodiy, geosiyosiy, iqtisodiy va boshqa faktorlar XXR tashqi siyosatida rol o'ynaydi. Tarixan shakllangan Xitoy va Koreyaning bo'linmas xavfsizligi hozirgi davrda katta dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy ikki koreys davlati bilan ham o'zaro diplomatik iqtisodiy aloqalar o'rnatgan. Xitoy KHDR bilan quruqlikda chegaraga ega. Shimoliy Koreya Xitoyning shimoliy-sharqiy chegarasining 1300 kmni egallagan. Xitoy Xalq Respublikasi bilan KHDR o'rtasidagi aloqalar 1949-yilda o'rnatilgan<sup>1</sup>. Xitoy va KXDR o'rtasidagi aloqalar rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar avvalo umumiy chegaralar mavjudligi, bir xil tuzumda ekanligi va boshqalardan iborat

Koreya urushi davrida Xitoy Xalq Respublikasi KXDR tomonidan urushda ishtirok etgan. Urushdan so'ng, Shimoliy Koreya bilan aloqalarni davom etirib, unga yordam ko'rsatgan. Xususan 1961-yilda do'stlik, hamkorlik va o'zaro yordam to'g'risida shartnoma imzolangan.

Xitoy manbalariga ko'ra oxirgi yillarda mazkur shartnomaga KXDRga nisbatan agressiya bo'lgan paytda XXRning yordam kuchlarini jo'natish sharti mustahkamlab qo'yilgan. Xitoyning KXDR bilan chegaradosh shimoliy sharqiy

---

<sup>1</sup> Ихуан Ч. Дипломатия Китая. Межконтинентальное издательство Китая. 2005 С. 104

hududi 1960-1070-yillarda industrial rivojlangan qismi bo‘lib yangi Xitoyning industrial “beshigi” hisoblanadi<sup>1</sup>. 2003 yilda mazkur hududni qayta rivolantirish rejasi ishlab chiqildi. Birinchi navbatda, mamlakatdagi sanoat rolini oshirish maqsadida birinchidan, energetik ta’minlanganlik, ikkinchidan, integratsiyalashgan transport aloqalarini rivojlantirish ilgari surildi<sup>2</sup>. Shuni ta’kidash lozimki mazkur hududlarga chegaradosh Shimoliy Koreya Sharqiy Osiyo transport integratsiyasiga kirmagan. Bunda Xitoy oldida Shimoliy sharqiy provinsiyalar bilan KXDRni ham mazkur integratsiyaga jalb qilish vazifasi turadi. Bu esa Koreya yarim orolining Xitoy tashqi siyosatida ustuvor hududga aylanadi. Yildan yilga Xitoy KXDR uchun faol ahamiyat kasb etib kelmoqda. Xususan, xitoyliklar Koreyadagi eng ko‘p xorijliklarni tashkil qiladi, gumanitar yordam ham faqat Xitoydan keladi.

XXR va KXDR o‘rtasidagi savdo hajmi 2008-yilda 2,87 mlrd dollarni tashkil qilgan<sup>3</sup>, 70% Lyaonin, Szilin va Xeylunjian<sup>4</sup> hisobiga to‘g‘ri keladi. Xitoy Shimoliy Koreyaning eksportining 42%ini, importning 57% ini ta’minlaydi. KXDR bilan XXRdavlat rahbarlari o‘rtasida oliy darajadagi uchrashuvlar tashkil etilgan: Ven Syabao KXDRga tashrif buyurgan Kim Chen Ir 2010-yilda Xitoyga tashrif buyurgan. Koreya Savdo Assotsiyatsiyasi ma’lumotlariga ko‘ra 2013-yilda XXR va KXDR o‘rtasidagi savdo hajmi 6 mlrd dollarni tashkil qilgan. Bu Pekin va Phenyan o‘rtasidagi savdo-iqtisodiy aloqalar tarixidagi rekord ko‘rsatgich edi.

Xitoy va KXDR hamkorligi ikki prinsip asosida o‘rnatilgan: o‘tish nuqta va uchburchak. Birinchisida Xitoyda ishlab chiqarilgan tovarlar KXDR orqali eksport qilinadi yoki aksincha. Koreya o‘z navbatida foyda oladi va Xitoyga temir, qalay va boshqa mahsulotlar almashtiradi. Chegaraviy savdo KHDR va XXR savdosi umumiy savdosining asosini tashkil qiladi. Chegara savdolari KXDR bozorlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Koreyashunos Lankov fikricha “ bozor

<sup>1</sup> China Vows to Revitalize Northeastern Industrial Base. Chinese Government Official Web Portal. 2003, 3 August. // [http://www.gov.cn/english/2003-08/13/content\\_23616](http://www.gov.cn/english/2003-08/13/content_23616).

<sup>2</sup> Yoon Hwytak. China’s Northeast Project: Defensive or Offensive Strategy? East Asia Review. 2004. No. 4, Vol.16 (winter), Pp. 100–101.

<sup>3</sup> Central Intelligence Agency. The World Fact Book: DPRK. <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/kn.html>

<sup>4</sup> Marumoto M. Korea Trade-Investment Promotion Agency. Цит. По: The Roles of China and South Korea in North Korean Economic Change. Korea’s Economy, 2008. Vol. 24. P. 92–105.

munosabatlari shimoliy koreyaliklarning iqtisodiyotida muhim rol o'ynaydi"<sup>1</sup>. Chegaraviy savdo KXDR ijtimoiy iqtisodiy hayotida ham XXR shimoliy-sharqiy hududlari rivojlanishi uchun birdek muhim. Shimoliy sharqiy hududlar rivojlanishi esa Xitoyning muhim mintaqaviy siyosatidir.

Lekin XXR va KXDR o'rtasida bir qancha farqlarni ko'rish mumkin. Buni quyidagilarda ko'rish mumkin birinchidan, xalqaro maydonda pozitsiyasidagi farqlar XXR kuchli derjava, KXDR esa zaif. ikkinchidan, turli siyosiy tizimlar KXDRda yagona shaxsning diktaturasi, XXRda kollektiv boshqaruv, uchinchidan, iqtisodiy rivojlanish kursi birinchisida bozor iqtisodiyoti ikkinchisida rejali xo'jalik. to'rtinchidan, mafkuraviy farqlar. Bularning bari ko'plab pozitsiyalarda farqlashishini anglatadi.

2002-yildayoq Xu Szintao Xitoy va Shimoliy Koreya munosabatlarida Xitoy strategic hamkorlikning 2-bosqichiga o'tayotganini aytib o'tgan. Bu ma'nosi shuki, Xitoy-Shimoliy Koreya munosabatlari qondosh akalik ittifoqidan rasmiy-davlat munosabtlariga o'tmoqda. Boshqacha aytganda munosabatlar, o'zaro hamkorlikga aylanmoqda. Lekin shunga qaramay, XXR qat'iy rasvishda Koreya yarim orolida status kvo saqlanishida turmoqda. Aqsh bilan raqobat o'sishi natijasida Xitoy uchun Koreya yarim orolida amaldagi pozitsiyalarini saqlash ya'ni Shimol va Janub o'rtasida tinchlik, va dialog saqlanishini va Koreyaning tinch birlashishini qo'llab quvvatlash g'oyasi hzirgi kunda foydali. Albatta Xitoy KXDRning amaldagi holatini saqlasb qolishni xoxlaydi. Lekin Koreya yarim orolining denuklerizatsiya qilish XXR tashqi siyosatining asosiy prinsiplaridan deyish mumkin.

Koreya Respublikasi iqtisodiy jihatdan rivojlangan davlat bo'lib Pekin tashqi siyosatida chetda qolmagan. Janubiy Koreya va XXR o'rtasidagi aloqalar 1992-yilda o'rnatilgan. Dastlabki davrda XXR va RK o'rtasidagi aloqalar iqtisodiy sohada birmuncha rivojlangan bo'lsa, siyosiy sohada biroz oqsardi. Ammo vaqtlar o'tib, siyosiy sohada ham munosabatlar iliqlashdi. Shundan so'ng ikki davlat o'rtasida hamkorlik tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Har ikki davlatning tashqi

---

<sup>1</sup> Ланьков А. Северная Корея: заметки о рынке в условиях тоталитаризма.// <http://www.inliberty.ru/library/387>



savdodagi o'rnini, savdo tarkibi ham bir biriga yaqinlashmoqda. Hozirgi kunda har ikkala davlat bir-birini to'ldiruvchi aloqadan raqobatchi aloqaga aylanmoqda. 2012-yilda Koreya bilan savdo aylanmasi 215 mlrd dollar tashkil qilgan. Asosiy sohalari qora va rangli metallurgiya, kimyo sanoati, asbob-uskunalar, yengil sanoat va shu kabilar. Janubiy Koreya eksportida oldingi 5 o'rinda: elektron uskunalar, avtomobil va ularning ehtiyot qismlari, kimyo mahsulotlari, mashinasozlik mahsulotlari va kemasozlik. Bundan tashqari Pekin XXR-Yaponiya – Koreya Respublikasi o'rtasida erkin savdo zonasi yaratishga intilmoqda. Bu masalada uchtomonlama muzokaralar 2002 yilda boshlangan, oxirgi sammit 2012-yil may oyida bo'lib o'tgan. Navbatdagi muzokaralar 2013 yilda o'tkazilishi kerak edi ammo Yaponiya bilan bog'liq Senkaku oroli borasidagi nizo sababli muzokara tashkillashtirilmadi. Bugungi kunda Xitoy o'zining an'anaviy siyosiy strategiyasidan chekingan holda yangi diplomatiya strategiyasini qabul qildi. Yangi diplomatiya AQSH, Koreya Respublikasi, Yaponiya ittifoqini zaiflashtirish maqsadida Koreya Respublikasi bilan yaqinlashish. Xitoy iqtisodiy va siyosiy munosabatlardagi taktika va strategiyalarini o'zgartirdi. Xususan Osiyo Tinch okeni mintaqasidagi strategiyasi ham o'zgardi. Koreya Respublikasiga nisbatan siyosatning o'zgarishi 2013 yilda Pak Gen Hening XXRga tashrifi va o'z navbatida XXR raisi Si Szinpinning Koreya Respublikasiga tashrifi bilan boshlandi.

Shuni ta'kidlab o'tish lozimki, Koreya Respublikasi XXR bilan aloqalarni yo'lga qo'yishga tayyor va bu uchun qattiq harakat qilmoqda. Ma'lumki, 2013-yil iyun oyida Koreya Respublikasi Pak Gen He XXRga 4 kunlik rasmiy tashrifni amalga oshirdi. Bu uning saylangandan keyin birinchi delegatsiyasi edi. Davlat rahbarlari jahon va mintaqaviy xavfsizlikning muhim masalalarini iqtisodiy, siyosiy madaniy va ijtimoiy sohalarda hamkorlikni mustahkamlash masalalari muhokama qilindi. Bu tashrif nimani anglatardi? Bu shundan dalolat ediki, so'nggi 20 yil davomida Janubiy Koreya Prezidentlari ilk tashriflarni AQSH va Yaponiyaga amalga oshirardilar. Pak Gen He hokimiyat tepasiga kelgach bu an'ana buzildi. Bu esa Janubiy Koreyaning Xitoy bilan aloqalariga urg'u berayotganidan dalolat berardi. Janubiy Koreya vakillarining asosiy maqsadi Shimoliy Koreya masalasini

muhokama qilishdan iborat edi Aqshdan soʻng u XXRga rasmiy tashrif bilan keldi. Bunday tashrifning sabablari quyidagilarda koʻrinadi:

Birinchidan, XXRning tez surʼatlarda oʻsayotgan iqtisodiy va siyosiy qudrati va bunga Janubiy Koreyaning iqtisodiyoti rivojlanishiga taʼsiri. Xitoyning potentsiali Koreya muammosini hal etilishiga yordam berishi ehtimoli yuqoriligi;

Ikkinchidan, Sindzo Abe boshchiligida oʻng kuchlar tomonidan, Koreya Respublikasiga oshkora hududiy( Dokto orolidagi nizo) noroziliklar bildirilishi, Yaponiyaning Osiyo xalqlariag qilgan jinoyatlarni tan olmasligi va shu kabilar.

XXRning “Jenmin Jibao” gazetasining xorijdagi nashrida 2014-yil 4 avgustda birinchi sahifada XXR Raisi Si Szinpinning Janubiy Koreyaga tashrifi “ XXR va Janubiy Koreya oʻrtasidagi munosabatlar yangi rivojlanish nuqtasida” nomi ostida chop etdi.

Ikki davlat oʻrtasida tashkillashtirilgan oliy darajadagi muzokaralarda davlat rahbarlari oʻzaro rivojlanish, mintaqaviy tinchlik va dunyoviy taraqqiyotni taʼminlashda oʻzaro hamkor ekanliklari eʼlon qildilar. Koʻplab Xitoy OAV shuni alohida taʼkidladilarki, ikki davlat oʻrtasidagi 20 yillik hamkorlik mobaynida bir-birlarini hamma sohalarda qoʻllab quvvatladilar, oʻzaro foydali hamkorlarga aylandilar va davlatlar oʻrtasidagi aloqlar rivojlanishiga namuna boʻldilar. Yana, Janubiy Koreya va Xitoy birgalikdagi yapon imperializmiga qarshi kurashganini esga olgan holda, Yaponiyaga qarshi oʻzaro hamkorlikni muhimligini alohida belgilab oʻtdilar. Yana Xitoy tomonidan Koreya va Xitoyning Yaponiya bosqinchiligidan ozod boʻlishning 70 yilligini nishonlash taklifi ilgari surildi.

Xitoy Janubiy Koreyani “*qardosh mamlakat*” sifatida koʻrib, oʻzining doʻstona mmosabatlarini bildirmoqda. Shu orqali Shimoliy sharqiy Osiyodagi kuchlar muvozanatini oʻzgartirisha urinmoqda.

Oxirgi yillarda Koreya Respublikasi va XXR munosabatlari keskin oʻzgardi. Siyosiy sohadagi hamkorlik ham rivojlana boshladi. Oliy darajadagi uchrashuvlarda Xitoy Amerika raketaga qarshi mudofaa toʻgʻrisida gapirib oʻtildi. Bu esa Xitoyning Aqsh va Janubiy Koreya oʻrtasidagi hamma sohadagi aloqalarni uzilishni yaratishga urinishidan dalolat berardi. 2014 yil iyun oyida Aqshning

Janibiy Koreyadagi harbiy kuchlari qo‘mondoni Kyortis Skaparotti Aqsh harbiy bazasida Amerika raketaga qarshi mudofaa kompleksi THAADni joylashtirishga urinish ketayotgani haqida ma‘lumot berdi. Bunga Koreya Respublikasi pozitsiyasi u Aqsh harbiy kuchlarining joylashishiga qarshi emas faqatgina uning tarkibiga PRO larni joylashtirishga qarshilik bildirmoqda.

Xitoyning Shimoliy sharqiy osiyodagi faoliyatidan quyidagicha xulosalarni chiqarish mumkin:

1. Xitoy Aqsh bilan jahon yetakchiligi uchun birinchi navbatda OTM mintaqasida kurashga chiqmoqda va mintaqada kuchlar muvozanatini o‘zgartirmoqchi;

2. Xitoy Koreya Respublikasini ittifoqdosh sifatida ko‘rmoqda va shu bois u bilan aloqlar yaxshilanmoqda;

3. Xitoy OTMda Aqsh va Yaponiyaga qarshi tartib o‘rnatmoqda;

4. Xitoyning Osiyodagi yangi strategik diplomatiyasi:

5. Xitoy Shimoliy Koreya bilan aloqalardan voz kecholmaydi.

Xitoyning Koreya yarim orolidagi manfaatlarini quyidagilarda ko‘rish mumkin:

1. Yarim orolda barqarorlikni mustahkamlash va tinch holatni ta‘minlashga intilish;

2. Sharqiy Osiyo yangi industrial davlatlariga xorij kapitalini jalb etish, Janubiy Koreya bilan iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash;

3. Koreyada an‘anaviy do‘stlik va hamkorlik munosabatlarini saqlab turish

Xalqaro faoliyatda Xitoy qat‘iylik bilan Koreyani qo‘llab quvvatlab kelgan. Xitoy Koreya yarim orolida siyosatini ikki tomonlama tushunish mumkin. Shimoliy Koreya siyosatini qo‘llab quvvatlash va do‘stona aloqalarni davom ettirish bilan bir qatorda Janubiy Koreya bilan norasmiy munosabatlarni to‘xtatmaslik.

XXR uchun Shimoliy Koreya o‘ziga xos bufer hudud vazifasini bajaradi. Ma‘lumki Sharqiy Osiyo mamlakatlari jumladan Yaponiy, Janubiy Koreyada Amerika Qo‘shma Shtatlari ta‘siri katta bor. Ana shulardan himoya maqsadida

ham KXDR Xitoy uchun ahamiyatli. Shu sababli hozirgi davrda XXR Shimoliy Koreya siyosiy rejimini butunlay qulashiga ta'sir etuvchi haranday harakatlardan tiyilib turibdi. Ancha taranglashgan siyosiy vaziyatga qaramay KXDRning muhim strategik hamkori bo'lib qolmoqda.

Umuman Xitoy Janubiy Koreya uchun ham Shimoliy Koreya uchun ham yirik savdo-iqtisodiy hamkor hisoblanadi. Pekin ikkala koreys davlati bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlari o'rnatishiga urinishidan dalolatdir va Koreya yarim orolida barqarorlik va tinchlik tarafdoridir.

Koreya masalasidagi yana bir masala bu ikki koreys davlatining birlashish g'oyasidir. O'z navbatida shuni ta'kidlash lozimki, Shimolda ham Janubda ham birlashish g'oyalari yo'q emas. Bina hozircha tashqi kuchlar to'sqinlik qilmoqda. Xususan, Shimoliy Koreya yadroviy dasturi to'sqinlik qilib turibdi. Ma'lumki XXR uchun Koreya yarim orolida KXDRning shu ko'rinishida saqlab qolinishi foydaliroq Koreya davlatlarining birlashuvi Xitoy tashqi siyosatida qanday rol o'ynashi haqida bir qancha mutaxassislar fikr bildirganlar. Bir xil mutaxassislar Koeyani birlashishi Xitoy uchun foydali emas deb hisoblaydilar. Birlashgan Koreya davlati Xitoy uchun jiddiy iqtisodiy va harbiy omil keltirib chiqarishi mumkin, Xitoyning Osiyo-Tinch okeani mintaqasidagi hukmronligiga to'siq bo'lishi ehtimoli bor<sup>1</sup>.

Boshqa bir mutaxassislar fikricha, Koreyaning birlashuvi Xitoyga salbiy jihatlardan ko'ra ijobiy natijalarga erishishi mumkin:

- Xitoy chegarasiga yaqin joyda "qaynoq nuqta"ni bartaraf etilishi;
- Yagona Koreya davlati bilan istiqbolli iqtisodiy hamkorlik qilish imkoniyati;
- Koreya masalasida vositachilik roli hisobiga Xitoy Xalq Respublikasining obro'sining kelgusidagi oshishi;

---

<sup>1</sup> Кан Д. С. Киевский национальный лингвистический университет //Актуальні проблеми політики. 2015.№ 54 Корејскаја проблема в контексте новой стратегии Китая стр. 186

### 2.3 Shimoliy Koreya yadroviy dasturini nazorat qilishda XXRning roli

Insoniyatni tahlikaga solayotgan umumbashariy xavf-xatarlar sirasiga kiruvchi yadroviy xavfsizlik muammolari xususida O‘zbekiston Respublikasining tutgan pozitsiyasini ifodalari ekan, Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov BMT BAning 1993 yilda bo‘lib o‘tgan 48-sessiyasida jumladan shunday degan edi: "Hozirgi zamon voqealigi shundayki, bir mamlakatning xavfsizligi boshqa davlat hisobidan ta'minlanishi mumkin emas. Mintaqa xavfsizligini butun jahon xavfsizligi muammolaridan ajralgan holda ko‘rib bo‘lmasdi. Shunga asoslanib, O‘zbekiston yadro qurolining batamom tugatilishi uchun, Yadro qurolini tarqatmaslik to‘g‘risidagi Shartnomaning samarali harakat qilishi va uning hech bir muddatsiz uzaytirilishi uchun harakat qiladi. O‘zbekiston Markaziy Osiyo mintaqasining yadrosiz zona deb e‘lon qilinshining qat‘iy tarafdoridir"<sup>1</sup>.

Hozirgi davrda insoniyat xavfsizligi va tinchligiga eng katta xavf solayotgan narsa bu ommaviy qirg‘in qurollaridir. Ayniqsa, yadroviy qurollar. Garchi sovuq urush tugab harbiy mojaralarda yadroviy qurollardan foydalanish xavfi yuqori bo‘lmasada, yadroviy qurollarning saqlanishi o‘zi bir tahdid sifatida ko‘rish mumkin. Sovuq urush tugagandan so‘ng xalqaro huquqda qurollanish, yadroviy quroli oldini olish yadroviy qurollarni tarqatmaslik to‘g‘risidagi Konvensiya shartnomalar imzolandi. Lekin bunga qadar dunyoning yetakchi barcha davlatlari yadroviy qurolga ega bo‘ldilar. Yadroviy qurollarni ishlab chiqarmaslik, tarqatmaslik, to‘g‘risidagi Konvensiyalar imzolagandan so‘ng ham bir qator mamlakatlar yadroviy qurollar ishlab chiqarishni boshlagandilar. Bular qatoriga Hindiston, Eron, Pokiston va Shimoliy Koreya kabi davlatlar edilar.

Oxirgi 20 yillik davr mobaynida mintaqaviy muammolar qatoriga Koreya yarim oroli yadroviy muammosi paydo bo‘la boshladi. Bu muammo Koreya masalasini yanada o‘tkirlashuviga turtki bo‘ldi. Pekinning Phenyan masalasi bo‘yicha mazkur masalani nazorat qilishdagi roli oshdi. XXRning KXDRning

---

<sup>1</sup> Каримов. И.А. БМТ Бош Ассамблеясинг 43-сессиясидаги маъруза. 1993 йил 28 сентябр // Биздан озод ва ободватан колсин. -Т.: “Ўзбекистон”, 1996. Т.2. –Б 52.

asosiy siyosiy hamkori va homiysi sifatida rolini hisobga olgan holda Shimoliy Koreyaning iqtisodiy rivojlanishi bevosita u yoki bu darajada XXRga bog`liq edi. Shu sababli Vashington va uning ittifoqchilari birinchi navbatida Koreya muammosini va uning yadroviy aspektini nazorat qilishda XXRni jalb etishga urindi. O`z havbatida ittifoqdosh davlatlar Pekinni o`z tomonlariga jalb etish uchun hamma imkoniyatlarini ishga soldilar.

XXR avval ham Shimoliy Koreya kollapsidan manfaatdor emasligini va bunga yo`l qo`ymasligini ta`kidlab o`tgan. Bundan tashqari XXR KXDRga nisbatan BMT Rezolyutsiyasi asosida qo`llanilgan og`ir sanksiyalar qo`llanilishini keskin tanqid qilgan. XXR fikricha qo`llanilgan sanksiyalar Shimoliy Koreyada hayot darajasini susaytirishi kerak emas<sup>1</sup>.

Shunga qaramay XXR Shimoliy Koreyaning yadroviy dasturini keskin tanqid qilib, norozilik bildirdi, yadroviy qurol bo`yicha BMT Xavfsizlik Kengashi Rezolyutsiyasini qo`llab quvvatladi. Lekin XXRning o`zi KXDRga nisbatan hech qanday chora ko`rmadi.

Shimoliy Koreyada yadroga qurolga ega bo`lish o`tgan asrning 50-yillaridan boshlandi. U payttada Shimoliy Koreya yadro qurolini yaratish qudratiga ega emasdi. Sobiq Ittifoq yordamida KXDRda ilk bor Atom Elektr Stansiyalar qurila boshlandi va asta sekin yadroviy qurolni yaratish boshlandi. 1964-yil Sobiq Ittifoq yordamida Yonbenda ilmiy-tadqiqot markazi barpo etildi. Aynan mana shu yerda yadro energetika sohasida ishlar olib borila boshlandi. 1965-yil Yonbenda 2 megavattlik IRT-2000 reaktori ishga tushirildi.

1980-yillardan boshlab Shimoliy Koreya yadroviy qurol ishlab chiqarishni tezlashtirib yubordi. Bunga bir qator sabablar bor edi birinchidan, o`sha yillardagi Moskva, Pekin va Seulning yaqinlashuvi; ikkinchidan rivojlangan sotsialistik davlatlarda Shimoliy Koreyaga nisbatan izolyatsiya kuchaygan edi. Xalqaro munosabatlarning ikki qutbli dunyo tendensiyasining buzila boshlaganligi ,

---

<sup>1</sup>Чан Янь. Роль Китая урегулировании Северокорейской ядерной проблемы. 13.03.2008 Хэйлуцзянский университет С.156.

mafkuraviy raqobatchilar yaqinlashuvi KXDRni o‘z raketa-yadroviy dasturini ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirib yubordi. Bunda shubhasiz Sobiq Ittifoq faol ishtirok etdi. 1985-yil yana bir 50 megavattlik yadro reaktori qurilishi boshlandi. Hamma reaktorlar mutaxassislar fikricha, ikki xil ahamiyat kasb etardi: elektr energiyasi ishlab chiqarish va plutoniyni olish. Lekin KXDR 1986-yilda Yadroviy qurolni tarqatmaslik to‘g‘risidagi Shartnomaga kiradi. 1986 –yilda Aqsh tomonidan Yonbenda yangi yadroviy reaktor aniqlandi. 1989-yilda Yonbenda yadrovy yoqilg‘i hamda sinov uchun poligon qurildi. Janubiy Koreya manbalariga ko‘ra 1990-yilning o‘rtalaridayoq Shimoliy Koreya yadroviy qurol yaratishga tayyorligi haqida keltirib o‘tilgan.

KXDR Yadroviy qurolni tarqatmaslik to‘g‘risidagi shartnomaga ham kiradi. 1992-yilda KXDR MAGATE bilan shartnoma imzolandi. Unga ko‘ra xalqaro agentlik Shimoliy Koreya yadroviy obyektlarini inspeksiya qilishi kerak edi. 1992-1993-yilgi inspeksiya natijasida KXDR taqdim etgan ma’lumotlar va Agentlik ko‘rib chiqib taqdim etgan ma’lumotlar farqlanganligi qayd etilgan. MAGATE inspektorlari hisob kitobi bo‘yicha Shimoliy Koreyada haddan ziyod uran va plutoniy qayta ishlangan. 1993 yilda KXDR Yadroviy qurolni tarqatmaslik to‘g‘risidagi Shartnomadan chiqishini rasman e’lon qildi. Shu tariqa yadro qurolini ishlab chiqishga berilib ketdi<sup>1</sup>.

KXDR 2005-yil 10 fevralda ilk bor rasmiy ravishda yadroviy qurolga ega ekanligini tan oldi<sup>2</sup>. KXDR Tashqi ishlar Vaziri ma’lumotiga ko‘ra, mamlakatning yadroviy quroli “mutlaq mudofaa” kafolatidir. Birinchi yerosti yadroviy qurolni sinovdan o‘tkazish 2006-yil 9-oktyabrda amalga oshirildi. Ma’lumotlarga ko‘ra, yadroviy qurol quvvati 5 dan 15 kilovattni tashkil etgan.

Koreya yarim orolidagi va Shimoliy Koreya yadroviy qurol atrofidagi vaziyat Sharqiy Osiyoning yirik davlatlari va boshqa buyuk davlatlarning ta’siri aralashgan hudud bo‘lib bormoqda. Bunda avvalo yetakchi rolni bevosita KXDRga qo‘shni davlatlar Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya Rossiya va Koreya

<sup>1</sup> Шилин А.А. Ядерная программа КНДР <http://www.armscontrol.ru/course/>

<sup>2</sup> Жебин А. Переговоры по ядерной проблеме на Корейском полуострове: промежуточные итоги // Проблемы Дальнего Востока. 2006, –№ 1; –С.10.

Respublikasi o'ynayotganini ko'rish mumkin. Bu jarayonga katta ta'sir ko'rsatayotgan davlat shubxasiz Xitoy Xalq Respublikasidir. XXR KXDR ga nafaqat moddiy texnologik yordam bermay, balki KXDRning yetakchi harbiy-siyosiy hamkori va yirik savdo hamkori bo'lib qolmoqda.

XXR va KXDR harbiy ittifoqining tarixi o'tgan asrning 70-yillariga borib taqaladi. 70-yillarda Sobiq Ittifoq KXDRni ballistic raketalar bilan ta'minlashdan bosh tortadi. Phenyan Xitoydan yordam so'raydi. 1975-yilda Kim Ir Sen Mao Szedun bilan bo'lib o'tgan muzokarlarda KXDRga 600km uzoqlikdagi ballistic raketalarni yetkazishga kelishishga muvaffaq bo'ldi<sup>1</sup>. Va bu 1978-yilga qadar davom etdi. Chunki aynan shu yillarda XXR dagi ichki qarama qarshiliklar, siyosiy o'zgarishlar tufayli raketalar yetkazish to'xtatildi. Bu paytda XXR Aqsh bilan diplomatik aloqalar o'rnatgan, Sobiq Ittifoqga qarshi ittifoq tuzgandilar, Pekin amerikalik do'stlarini jaxlini chiqarmoqchi emasdi. KXDRning Yadroviy qurolni tarqatmaslik to'g'risidagi Shartnoma atrofidagi harakatlarining boshida Xitoy turadi. Shimoliy Koreyaning Shartnomadan chiqishi uning hamkori bo'lmish Xitoyning yadroviy strategiyasiga bog'liq. Do'stlik, hamkorlik to'g'risidagi shartnomaga muvofiq XXR KXDRni o'zining yadroviy qalqoni bilan himoya qilishi kerak edi. Xitoy kartasi KXDRda yadroviy qurol ishlab chiqarishni paydo bo'lishi va tarqalishida muhim rol o'ynagan.

Xitoyning o'zida yadroviy qurolni ishlab chiqarish 1950-yil o'rtalaridan boshlangan. Dastavval, Sobiq Ittifoq bilan tor aloqalar natijasida amalga oshirilgan. Sobiq Ittifoq o'zining yadroviy namunlarini XXRga yuborar, xitoylik mutaxassislar Dubnada yadroviy tadqiqotlar institutida o'qigandilar. Sobiq Ittifoq va XXR o'rtasida munosabtlar keskinlashgan paytda, yadroviy qurol yaratish Xitoyning eng asosiy maqsadlardan biriga aylandi. Garchi XXR 1992 yilda Yadroviy qurolni tarqatmaslik to'g'rididagi shartnomaga a'zo bo'lgan bo'lsada, yadroviy ambitsiyalarini susaytirmadi. Bu esa o'z navbatida Xitoyga qo'shni

---

<sup>1</sup> Чан Янь Роль Китая урегулировании Северокорейской ядерной проблемы 13.03.2008 Хэйлуцзянский университет –С. 157



bo‘lgan davlatlarning norozililiga sabab bo‘ldi. Faqatgina Shimoliy Koreyagina bu ambitsiyalarni qo‘llab quvvatladi.

Jahon Ommaviy Axborot vositalariga Xitoyning mahfiy ravishda Jazoir, Ironda yadroviy texnologiyalarni yetkazilishi haqidagi xabarlar tarqalishi natijasida Xitoy hukumati rasmiy ravishda “XXR yadroviy qurol ishlab chiqarishda Koreya Xalq Demokratik Respublikasi bilan hamkorlik qilmaydi” deb e‘lon qilgan edi. Bundan tashqari, Pekin Shimoliy Koreya yadroviy ambitsiyasiga hech qanday ma‘naviy yordam bermasligini ta‘kidlab o‘tgan.

Lekin shuni ta‘kidlash lozimki, XXR boshidanoq KXDR yadroviy dasturiga nisbatan sanksiyalar va boykotlar joriy qilinishiga qarshi bo‘lgan. Xitoy muammoni hal qilishda KXDR, Koreya Respublikasi, va Aqshni o‘z ichiga oluvchi uch tomonlama muzokaralar o‘tqazish tashabbusi bilan chiqdi. Ammo XXRning o‘zi u muzokaralarda ishtirok etishdan bosh tortdi. Keyinchalik 2003-yilda XXR hukumati muzokara jarayonida qatnashishga rozilik bildirdi. Hattoki, yadroviy muammolar bo‘yicha olti tomonlama muzokaralar o‘tkazish uchun o‘z hududini taklif qildi.

Pekin pozitsiyasi zahirida Koreya yarim orolini yadrosizlantirish masalasi yotibdi. Xavfsizlik borasida Xitoyning asosiy maqsadlardan biri Shimoliy Koreya yadroviy xaritasi yordamida Yaponiyaning harbiy salohiyatini oshirishiga urinishidan himoyalandishdir<sup>1</sup>. XXR Koreya yarim orolining yadrosiz hududga aylantirish g‘oyasini ilgari surar ekan ikki maqsadni ko‘zlagan:

- Koreyada yangi urushdan (asosan yadroiy urush) qochish;
- Butun mintaqani yadroviy qurollanish poygasiga tortilishiga yo‘l qo‘ymaslik, va buning natijasida Yaponiya va Tayvan yadroviy derjavalarga aylanishiga yo‘l qo‘ymaslik<sup>2</sup>;

Xitoylik ekspertlar fikricha Koreya yarimorolidagi vaziyatning boshi berk ko‘chasiga kirib qolishi Aqshning Shimoliy sharqiy hattoki Shaqriy Osiyodagi harbiy potensiali;

<sup>1</sup> Jing-dong Yuan. Pyongang’s Nuke Talk Tests Beijing’s Diplomacy. – Asia Times, 16.02. 2005. P. 22–28.

<sup>2</sup> Parker J. Restore US nukes to South Korea. – Asia Times, 23.02.05. C.

Yaponiyaning Aqsh harbiy mudofaa operatsiyalarida ishtiroki; Janubiy Koreyaning mustaqil mudofaa masalasidagi harakatlari va shu kabilar. Agar KXDR To'liq Yadroviy davlatga aylanib, uni yetkazish bo'yicha yetakchi davlatga aylansa yadroviy ambitsiya Janubiy Koreya, Tayvan va Yaponiyaga o'tishi mumkin.

XXRni hammasidan ham Tayvanning yadroviy qurolga ega bo'lish potentsiali xavotirga solmoqda. Chunki Tayvan har doim XXRning og'riqli nuqtasi bo'lib kelgan. Shu bois XXXR Shimoliy Koreya Yadroviy dasturini nazorat qilishda bevosita aloqador va muhim rol o'ynaydi.

Xitoy Aqsh va KXDRni yarashtirishga harakat qilmoqda. Avvalo yuqorida ta'kidlangandek uch tomonlama muzokaralarni tashkillashtirishga harakat qildi. Lekin shunga qaramay XXR uchun amaldagi Shimoliy Koreya rejimi muhim ahamiyat kasb etadi. KXDRdagi tuzum qulashi Xitoyga bir qator muammolar keltirishi mumkin. Avvalo koreys qochoqlarini misol qilish mumkin.

Hozirgi kunda Aqsh va XXR Shimoliy Koreya Yadroviy dasturini muammosini hal qilishda yakdil fikrga egadirlar. XXR sobiq raisi Tsyen Szenmin 2003-yildayoq Aqsh va XXR koreya yarim orolini yadroviy quroldan tozalash yo'lida birgalikda harakat qilishlarini ta'kidlab o'gan.

Lekin XXRda Shimoliy Koreya yadroviy muammosiga boshqacha fikrda yondoshuvchilar ham bor. "Yadroviy dasturni rivojlantirish Shimoliy Koreyaning ichki ishi hisoblanadi. U o'zining yadroviy texnologiyalarini eksport qilmaguncha unga bosim o'tkazish to'g'ri yo'l emas" deb ta'kidlaydi Fundan universiteti professori Shen Dinli. Uning fikricha Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnoma bilan bo'g'langan holda, Shimoliy Koreyaga bosim o'tkazish to'g'ri emas. Chunki birinchidan mazkur shartnomaga kirish majburiy emas, davlat ixtiyoriga bog'liq, ikkinchidan esa Xitoy Eron Hindiston kabi davlatlarga xalqaro bosim yadroviy qurolni yaratishiga to'sqinlik qilmadi. Shen

Denli fikricha Shimoliy Koreyaning yadroviy dasturdan voz kechishiga hech qanday asos yo`q<sup>1</sup>.

Bundan tashqari professorning fikricha, Shimoliy Koreya yadroviy dasturi orqali o`zining xavfsizligini ta`minlamoqda, Aqshdan bo`lishi mumkin agressiyani oldini olmoqda.

XXR tashqi siyosiy vazifalarni bajarishda avvalo xalqaro huquq normalariga amal qiladi. Mavjud muammolarni ma`lum bir tizim ostida yechishga harakat qiladi. Avvalo xalqaro forumlar yaratishga urinadi. Ana Sunday Forumlar orasida ASEAN mintaqaviy Forumi, Shanhay Hamkorlik Tashkiloti va Shimoliy Koreya bo`yicha oltitomonlama muzokara formatini misol qilib keltirish mumkin.

Shimoliy Koreyada yadroviy qurol masalasi ko`tarilgandan beri XXR to`rttomonlama, keyinchalik oltitomonlama muzokaralarni yo`lga qo`yish masalasini kun tartibiga qo`ydi. Hattoki 2005-yil 28-30-iyundagi XXR Raisi Xu Szintaoning KXDRga tashrifi chog`ida davlatlar o`rtasida muzokarlarda yadroviy dastur muhim bahs mavzusi bo`lgan. Aynan yadroviy qurol masalasiga Xitoy rahbariyati katta ahamiyat bermoqda. Olti tomonlama muzokaralar bir qancha bosqichlarni o`z ichiga olgandi.

2003-2006-yillarda olti tomonlama muzokaralarning 5 raundi bo`lib o`tdi. Dastlabki 3ta raundda birinchidan muzokaralar olti tomonlama bo`lishiga qaramasdan asosiy ishtirokchilar Phenyan va Vashington ekanligicha qoldi. Hech qanday natijaga erishilmadi. Ikkinchidan ishtirokchilar o`rtasida muzokara muhiti yo`qligi ma`lum bo`ldi. Vujudga kelgan birinchi muammo shunda ediki, Shimoliy Koreya yadroviy quroli orqali hamkorlardan katta iqtisodiy yordam talab qildi, Aqsh esa o`z navbatida Shimoliy Korey yadroviy dasturini CVID (Complete, Verifiable and Irreversible Dismantlement) yani butunlay to`liq to`xtatishni talab qildilar.

To`rtinchi raund 2005-yil iyul-sentabr oyidan boshlandi va tomonlar o`rtasida birinchi marotaba shartnoma imzolashga erishildi. Qo`shma bayonot shaklidagi denuklerizatsiya qilish to`g`risidagi Shartnoma 2005-yil 19-sentabrda

<sup>1</sup> Шэнь Динли. 2005. Эксперт: миру придется смириться с “ядерной” Северной Кореей. – <http://topnews.com.ru/9/10127/2005-2-25/index.html>

imzolandi. Unga ko'ra: Shimoliy Koreya atom energiyasidan tinchlik maqsadida foydalanish huquqini saqlab qoldi, Boshqa ishtirokchilar mazkur huquqni xurmat qilish va amal qilish majburiyatini oldilar. Hujjatda bundan tashqari KXDR yadroviy qurollardan voz kechish, Yadroviy qurollarni tarqatmaslik to'g'risidagi shartnomaga, va MAGATE inspeksiyasiga kirish majburiyatini oldi.

2006-yilda Shimoliy Koreya butun dunyoga yadroviy qurolga egaligini e'lon qilib, olti tomonlama muzokaralarni boykot qilishni boshladi. Bundan 3 kundan so'ng XXR Tashqi Ishlar Vaziri Yadroviy dastur bo'yicha olti tomonlama muzokaralarni qayta tiklashga urinib ko'rishni va'da berdi<sup>1</sup>. Aqsh va boshqa oltitomonlama muzokarlarda ishtirok etayotgan mamlakatlar Shimoliy Koreyaning yagona hamkori, enenrgoresurs yetkazib beruvchisi bo'lgan Pekindan o'z ta'sirini Shimoliy Koreyaga nisbatan qo'llashini talab qildilar. 2006-yil oktyabr oyida BMT Xavfsizlik Kengashi Shimoliy Koreyada yadroviy qurolni sinovdan o'tkazishga javoban Rezolyutsiya qabul qildi. Rezolyutsiyada KXDRga har qanday harbiy texnologiyalar, qurollarni hamda yadroviy texnologiya va materiallarni sotish, yetkazishni taqiqlar edi. O'z navbatida Xitoy KXDRga neft yetkazishni to'xtatdi. XXRning mazkur iqtisodiy bosimi KXDRni qiyin vaziyatga tushirib qo'ydi. Va nihoyat Phenyan olti tomonlama muzokarlarda qatnashishga rozi bo'ldi. Muzokaralar 2006-yil dekabrda qayta tiklandi, 2007 yil boshiga kelib 7-raundga yetdi va Pekin shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra KXDR yadroviy dasturni muzlatishdan boshlab, bosqichma bosqich qadam tashlab yadroviy dasturni butunlay to'xtatishi lozim edi. Yadroviy dasturni to'xtatish evaziga KXDR Aqsh, Yaponiya XXR Rossiyadan iqtisodiy yordam olishi kerak edi.

Olti tomonlama muzokaraning barcha a'zolari bilan maslahatlashgan holda XXR Shimoliy Koreya yadroviy inqirozini yechishga oid yangi rejani ishlab chiqdi. Va bu reja 2006-yil iyun oyida muzokara ishtirokchilari tomonidan ko'rib chiqilishi kerak edi. Ammo KXDR raketalarini uchirishi bu rejani amalga oshishiga yo'l qo'ymadi.

---

<sup>1</sup> Кан Д. С. Киевский национальный лингвистический университет //Актуальні проблеми політики. 2015. Вип. 54 Корейская проблема в контексте новой стратегии Китая. С. 188-190

2006-yilda oltitomonlama muzokaralarni tiklash uchun yangi vaziyat paydo bo'ldi. XXR Tashqi Ishlar Vazirligi tashabbusi bilan, Pekinda Aqsh, XXR va KXDR vakillari o'rtasida uch tomonlama uchrashuv bo'lib o'tdi. Unda Yaponiya Koreya Respublikasi va Rossiya ishtirokida ko'p tomonlama muzokaralarni yaratishga qaror qabul qilindi. Ammo shu bilan Shimoliy Koreya yadroviy quoldan voz kechmadi, 2006 yildan so'ng 3 marta yadroviy quolni sinovdan o'tkazdi.

2009 yil 5 aprelda KXDR Inxa-2 raketasini uchirdi. Xavfsizlik Kengashi Shimoliy Koreya raketalarini muhokamaga qo'ydi. Bu raketa uchirish amaldagi BMT Xavfsizlik Kengashining 1718 Rezolyutsiyasiga zid ravishda amalga oshirilganligi ta'kidlab o'tildi. 2009 yilda KXDR olti tomonlama muzokaralardan voz kechishini e'lon qildi. 2009 yil iyun oyida Pekin tomonidan Phenyanga ikkinchi yadroviy quol uchun og'ir norozilik bildirildi, ammo 2-3 oydan so'ng esa Xitoy-Shimoliy Koreya keng qamrovli munosabatlari, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik o'z holatiga qaytdi. O'sha yilning o'zida XXR Markaziy Kengashi vaziri Ven Tsyabao KXDRga tashrifni amalga oshirdi. Bu ikki tomonlama munosabatlarda katta burilish ro'y berdi. Savdo hajmi 62,5%ga o'sdi va 5,63 mlrd dollarni tashkil etdi. Mutaxassislar guruhi ma'lumotlariga ko'ra xitoy investitsiyasi 7mlrd dan 10 mlrd dollarni tashkil etgan<sup>1</sup>.

2013-yilgi yadroviy quolni sinovdan o'tkazilishidan so'ng vaziyat birmuncha o'zgardi. Janubiy Koreya OAV ma'lumotlariga ko'ra XXR nihoyat KXDRga qo'llanilgan sanksiyalarni qat'iylashtirishni talab qildi. Xususan XXR transport vazirligi BMT Rezolyutsiyasiga muvofiq chegaralarda qat'iy Shimoliy Koreya yuk mashinalarini tekshirish to'g'risida qaror qabul qildi. Albatta XXRning KXDRga munosabati keskin o'zgargan deb taxmin qilishga vaqqli. Buning uchun avvalo muntazam monitoringni olib borish kerak. 2014 yil may oyida XXR hukumati tashqi siyosatda KXDRga bank operatsiyalariga ruxsat bermaslik to'g'risida qaror qabul qildi. Lekin Xitoy hududida KXDRda moliyaviy

---

<sup>1</sup> China's Impact on Korean Peninsula Unification and Questions for the Senate. A Minority Staff Report Prepared for the Use of the Committee on Foreign Relations United States Senate One Hundred Twelfth Congress, Second Session. December 11, 2012. P. 6.

ishlar bila shug'ullanuvchi boshqa banklar ham yo'q emas. 2013-yil boshida KXDR va XXR o'rtasida savdo hajmi 7 % ga qisqargan. 2013-yil mart oyida XXRdan KXDRga xom neft yetkazish ham to'xtatiladi. Lekin bunday to'siqlar ikki mamlakat o'rtasidagi savdo iqtisodiy aloqalarning butunlay uzilishiga ta'sir etmadi.

2016-yilning yanvar oyida KXDR hisob bo'yicha 4-yadroviy qurolini sinovdan o'tkazdi. Bu sinov dunyo hamjamiyati diqqat markazini Koreya yarim oroliga qaratdi. Shimoliy Koreya Ommaviy Axborot Vositalari ma'lumotlariga ko'ra KXDR vodorod bombasini sinovdan o'tkazganligi ta'kidlab o'tilgan. Ammo Jahon OAV Shimoliy Koreyani vodorod bombasini ishlab chiqarishga qodir emasligini aytmoqdalar. Janubiy Koreya ma'lumotlariga ko'ra esa mazkur qurol yadroviy qurolning mukammallashtirilgan namunasi bo'lish ehtimoli bor. Mazkur sinovlardan so'ng XXR Tashqi Ishlar Vazirligi tomonidan norozilik bildirildi. Yana XXR hukumati tomonidan BMT tomonidan qabul qilinadigan Rezolyutsiya Koreya yarim orolidagi beqarorlikga olib kelmasligi, vaziyatni yanada chigallashtirishi kerak emas. Yana BMT Rezolyutsiyasi tomonlarni Koreya yarim orolida yadrosizlantirish bo'yicha olti tomonlama muzokaralar stoliga tiklanishiga xizmat qilishi kerak. XXRning KXDR yadroviy dasturiga nisbatan pozitsiyasi aniq, ma'suliyatli va e'tiborlidir. Va u uchta bir biriga bog'liq prinsiplardan iborat:

- Koreya yarim orolini denuklearizatsiya qilish;
- Barcha masalalarni muzokaralar va diplomatik yo'l orqali hal etish;–
- Mintaqada tinchlik va barqarorlikni saqlab qolish<sup>1</sup>.

KXDRga shunday sanksiyalar joriy etish kerakki bular olti tomonlama muzokaralar tiklanishiga hamda Koreya yarim orolida barqarorlik bo'lishiga xizmat qilishi lozim deydi XXR Tashqi Ishlar Vaziri Van I<sup>2</sup>.

---

<sup>1</sup> Иванчикова Н.М. Политика Китая в отношении стран Корейского полуострова <http://www.articlelivejournal.ru>

<sup>2</sup> Глава МИД КНР: новая резолюция ООН по КНДР не должна провоцировать обострение ситуации <http://tass.ru/mezhdunarodnaya-panorama/2617506>

Yuqorida ta`kidlab o`tilganidek, XXR Shimoliy Koreya yadroviy dasturini nazorat qilishda olti tomonlama muzokaralarga urg`u bermoqda. XXR fikricha, muammoni kuch yoki qurol yordamida hal qilib bo`lmaydi. Faqatgina diplomatik muzokaralar orqaligina yadroviy dasturni nazorat qilish mumkin.

Bugungi kunda XXRning Osiyo mintaqasidagi ta`siri ortib bormoqda. XXR raisi Si Szinpin 2014-yil may oyidagi Shanhayda o`tkazilgan Osiyoda o`zaro ishonch va almashinishni mustahkamlash Konferensiyasida “ Osiyoning xavfsizligini osiyoliklar ta`minlashlari lozim,<sup>1</sup>” degan fikrni bildirdi va mintaqaviy xavfsizlik mexanizmini yaratishga hamma davlatlarni chaqirdi. Mazkur konferensiyada Janubiy Koreya ham qatnashgan edi.

XXR Koreya masalasida bevosita ishtirok etar ekan shuni aytish mumkinki, mazkur mintaqada xavfsizlik ta`minlanishi uning faoliyatiga bevosita bog`liq. Chunki XXR ikki Koreya davlati uchun birdek muhim hamkor hisoblanadi. XXR Shimoliy Koreya yadroviy dasturini nazorat qilishda bevosita qatnashar ekan, avvalo Koreya yarim orolini yadrodan holi hudud qilish o`z xavfsizligi nuqtai nazaridan muhimdir. Koreya yarim orolidagi XXR pozitsiyasi muayyan tuzumni saqlagan holda tinchlik, barqarorlikni ta`minlashdan iborat.

---

<sup>1</sup> Си Сзиньпин. О государственном управлении. Пекин. 2014. Издательство литературы на иностранных языках. С.344.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mazkur tadqiqotda xalqaro yadroviy xavfsizlik muammosining yuzaga kelish tarixi, bunday xavfni bartaraf etish uchun manfaatdor davlatlar va xalqaro hamjamiyat tomonidan amlga oshirilayotgan sa'y-harakatlar, xalqaro tashkilotlarning quolsizlanish, yadroviy xavfsizlikni ta'minlash borasidaga faoliyati, yadro qurolidan xoli zonaning sonini yana bir pog'ona ko'tarish, YAqin Sharq mintaqasining global miqyosda yadroviy xavfsizlikni ta'minlashda tutgan o'rni kengroq miqyosda tahlil qilingan.

Xavfsizlikning vazifalari bu, eng birinchi navbatda ijtimoiy munosabatlarning barqaror, progressiv rivojlanishini ta'minlovchi shart-sharoit yaratish, hayotni saqlash, mustahkamlash, va boyitish ya'ni, shaxs, jamiyat va davlatning progressiv rivojlanishini ta'minlovchi ijtimoiy munosabatlarning ximoyalangan holatini saqlash lozim.

Olib borilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, quyidagi asosiy xulosalarni ifodalash mumkin:

1. Xavfsizlik muammosi yuzasidan bildirilgan fikr va qarashlar o'rtasida o'ziga xos umumiylik hamda farqlar mavjudligi aniqlandi. Ularning ba'zilari xavfsizlikni ta'minlashda shaxs omiliga katta e'tibor qaratgan bo'lsa, ba'zilari davlatni oliy qadriyat sifatida, boshqalari esa davlatlarning rolini pasaytirishga, xalqaro hamjamiyat va xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini ko'tarishga harakat qilmoqda. Ular orasidagi umumiylik esa xavfsizlikning dolzarbligini e'tirof etilishida hamda uni ta'minlashda harbiy kuch omiliga bo'lgan yondashuvning o'zgarishida aks etmoqda;

– zamonaviy xalqaro munosabatlarda shakllanayotgan yangi xavfsizlik tizimi nafaqat harbiy, balki insonning erkinlik, tenglik, haqiqat va adolatga bo'lgan qonuniy intilishlarini ta'minlovchi iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohalarni ham o'z ichiga qamrab olishi zarurligi ma'lum bo'ldi;

– bugungi kunda milliy xavfsizlikni ta'minlashda davlat va jamiyatning asosiy oliy qadriyati bo'lmish shaxsga bo'lgan e'tiborning ortib borishi kuzatilmoqda;



– xalqaro xavfsizlikni ta'minlashda integratsion jarayonlarni rivojlantirish, milliy manfaatlar uyg'unligiga erishish hamda xalqaro tashkilotlarning ahamiyatini oshirish barcha davlatlarning milliy manfaatlariga mos kelishi e'tirof etilmoqda;

– bunda davlatlar yangi shart-sharoitdan kelib chiqqan holda hamda milliy, mintaqaviy va xalqaro xavfsizlikning o'zaro bog'liqligini to'la xis etgan holda, o'z milliy manfaatlarini belgilashda dunyo hamjamiyati manfaatlarini hisobga olishlari zarur;

2. Koreya yarim oroli kichik hudud bo'lsada, unda yuz berayotgan jarayonlar butun Shimoliy-Sharqiy Osiyo mintaqasiga ta'sir etishi mumkin; Uning geostrategic joylashuvi yirik davlatlar manfaatlari to'qnashgan hudud bo'lib qoldi. Yarim orolda tinchlik va barqarorlik o'rnatish masalasi birinchi navbatda yarim oroldagi davlatlar o'zaro munosabatlariga bog'liqligi ma'lum bo'ldi. Ikki koreys davlati o'rtasida muntazam dialog yo'lga qo'yilmasa, Koreya yarim orolida tinchlik, barqarorlikga erishish mushkul.

XXR Koreya Respublikasiga qo'shni davlat sifatida yarim orolda xavfsizlikni ta'minlashda bevosita ishtirok etadi. Bu avvalo o'z xavfsizligi nuqtai nazaridan, shimoliy sharqiy provinsiyalar xavfsizligi nuqtai nazaridan XXR uchun ahamiyatli. O'z navbatida XXR Shimoliy Koreyaning butunlay qulashidan manfaatdor emasligi tufayli birinchi navbatda yarim orolda mavjud tuzumni saqlab qolishga va shu orqali barqarorlik o'rnatilishiga urinmoqda:

Muammoni chuqurlashtirayotgan KXDR yadroviy dasturi nazorat qilishda agressiya, bosim o'tkazish kuch bilan tahdid qilish kabi vositalar ish bermasligini hisoga olgan holda mazkur muammoni faqatgina muzokaralar yo'li bilan amalga oshirish ko'zda tutiladi. Bunda olti tomonlama muzokaralar samara berishi mumkin. Mazkur muzokaralarni qayta tiklash va mukammallashtirish muammoni nazorat qilishda yordam beradi;

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

### 1. Me‘yoriy-huquqiy xujjatlar:

- 1.1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси, - Т.: Ўзбекистон. 2015. 40 б.
- 1.2. Constitution of the People's Republic of China. December 4, 1982
- 1.3. БМТнинг Устави//<http://www.un.org/ru/documents/charter/chapter1.html>
- 1.4. Стратегия национальной безопасности // <http://novlenta.ru/index.php/natsbezopastnost/reformirovanie-vsu/upravlenie-nb-v-kitae/570-strategiya-nacionalnoj-bezopasnosti-kitaya>

### 2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov asarlari:

- 2.5. Каримов И.А. Бунёдкорлик йўлидан. – Т.4. – Т.: Ўзбекистон, 1996.– 349 б.
- 2.6. Каримов И.А. Хавфсизлик ва барқарор тараққиёт йўлидан. Т.: –Т.6. – Ўзбекистон, 1998. 326 б.
- 2.7 Каримов И.А. Ўзбекистон XXI аср бўсағасида: хавфсизликка таҳдид, барқарорлик шартлари ва тараққиёт кафолатлари . – Т .: Ўзбекистон, 1997. – 326 б.
- 2.8. Каримов И.А. Ўзбекистон XXI асрга интиломқда. Т.: «Ўзбекистон», 1999.– 367 б.
- 2.9. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: Маънавият, 2008. – 178 б.
- 2.10. Каримов И.А. Ўзбек халқи ҳеч қачон ҳеч кимга қарам бўлмайди. –Т.13 –Т.: Ўзбекистон, 2005.
- 2.11. Каримов И.А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т.10.– Т.: Ўзбекистон, 2002. – 432 б.
- 2.12. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг Шанхай ташкилотига аъзо мамлакатлар давлат раҳбарлари кенгашининг кенгайтирилган мажлисидаги нутқи. Халқ сўзи, 13.09.2014.

### 3. Илмий адабийотлар

#### О'zbekistonda chop etilgan adabiyotlar:

- 3.13. Bekmurotov I.N. Xitoy tashqi siyosati mentaliteti: yangi asr ehtiyoji. // “Xitoyshunoslikning dolzarb masalalari” respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi. T., 2014.
- 3.14. Жўраев С. Саидолимов С.Т. Абдуғаниева З. Халқаро хавфсизлик Ўқув кўлланма. □ Т., 2007. □ 148 б.
- 3.15. Каримова Н.Э. Внутренняя и внешняя политика зарубежных стран. Востока и Запада. Учебное пособие, Ташкент. Фан, 2006. □ 400 с.  
Каримова Н.Э. Особенности развития стран Дальнего Востока Учебное пособие. □ Ташкент: ТашГИВ, 2009 □ 234 с.
- 3.16. Каримова Н.Э. Узбекистан и Корея: исторические связи. Монография Ташкент, 2008 – 90 с.
- 3.17. Каримова Н.Э. Взаимоотношение Китая с государствами Корейского полуострова Востоковедение. ТашГИВ. 2007. № 1 □ 2 С. 23-24.
- 3.18. Каримова Н.Э. Китайская империя Тан и корейское королевство Силла. Актуальные проблемы китаеведения: вопросы филологии, политики, экономики и философии. Материалы научно-практической конференции. Т.:ТашГИВ, 2009. С.103-109
- 3.19. Ким В.С. Китай с позиции «мягкой силы» входит в эпоху глобализации. Материалы международной научной конференции «Судьбы национальных культур в эпоху глобализации», ЧелГУ, г.Челябинск, 18.03.2010г. С. 85-89.
- 3.20. Ким В.С. Дипломатия Китая (соавторство: Е. Иванченко) « Маяк Востока», 2007 ; С.5-7.
- 3.21. Ким В.С. Китай спозиций «крупной развивающейся страны» движется к многополюсному миру. Материалы научного сборника ВАКРФ. УРГУ, г. Екатеринбург, 2010. С.12

3.22. Muhammadsidiqov M.M. Zamonaviy xalqaro munosabatlarning mintaqaviy jihatlari. O`quv qo`llanma. -T.: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2013.– 172 b.

3.23. Шарапов А. Бугунги Хитой Халқ Республикасининг Жаҳон сиёсатидаги ўрни.// Мақола. “Хитойшуносликнинг долзарб масалалари: филология, фалсафа, тарих, иқтисод ва сиёсат” мавзuidaги XII илмий-амалий материаллари тўплами. Тошкент, 28-ноябр 2015-йил.-Т.: ТДШИ, 2015. – 286-б

3.24. Шамаманов Ш.И. Ислохотлар даврида Хитой Халқ Республикаси // Монография. Т.: Тошкент давлат шаршунослик институти, 2014.-167 б/

### **Rossiyada chop etilgan adabiyotlar:**

3.25. Гура В. Новий міжнародний порядок: проблеми та перспективи формування / В. Гура // «Третій світ» у контексті цивілізаційних вимірів розвитку і глобальних викликів ХХІ століття : матеріали міжнародної наукової конференції (м. Київ, 10 червня 2014). – К., 2014. С 32

3.26. Денисов В.И. Корейская проблема: пути урегулирования –М.; □ 1988 □ 139с.

3.27. Дико Н. Глобальные проблемы развития разума и гуманизация международных отношений. – М.: Международные отношения, 1990. – 600с

Курбанов О.С. Курс лекции по истории Кореи с древности до конца ХХІ вв Спб Издательство Санкт-Петербургского Университета 2002 □□ 626с.

3.28. Жебин А. Переговоры по ядерной проблеме на Корейском полуострове: промежуточные итоги // Проблемы Дальнего Востока. 2006, № 1 С.34-40;

Мамонов М. Система внешнеполитических приоритетов современного Китая. М.: Аспект Пресс, 2009. 418с

3.29. Забровская Л. В. Политика Китая в отношении КНДР // Россия и АТР 2007 №3 □ С. 57-61

- 3.30. Кан Д. С. Корейская проблема в контексте новой стратегии Китая. Киевский национальный лингвистический университет // Актуальні проблеми політики. 2015. Вип. 54 С. 181 □ 192.
- 3.31. Китай в мировой политике / Отв. ред.-сост. А.Д. Воскресенский. – М.: РОССПЭН, 2001.
- 3.32. Ланцова И. С. Корейская проблема в системе международных отношений с середины 80-х годов до середины 90-х годов XX века;
- 3.33. Ланьков А.В. Но все ли так безнадежно? Интервью газете Российские Корейцы. 2010, август
- Ланысов А.Н. КНДР вчера и сегодня. Неформальная история Северной Кореи. М., 2005;
- 3.34. Межкорейские отношения и политика региональных держав. (научный доклад) / Отв. ред. В.В. Михеев, А.Н. Федоровский – М.: ИМЭМО РАН, 2014, С. 61 □ 90
- 3.35. Михеев В. Китай и азиатский регион. // Международная жизнь. 1999, № 9 С. 30-42
- 3.36. Молодин В.Н. Комиссаров С.А. История Китайских границ. // Новая и новейшая история. 2003, № 3 С. 50-52
- 3.37. Пульс планеты: Азиатско-тихоокеанский регион (ИТАР/ТАСС). М., 1996—2006.
- 3.38. Пироженко О. «Утерянная земля»: китайско-корейские разногласия в трактовке истории Когурё // Проблемы Дальнего Востока. М., 2004. № 6. .2004
- 3.39. Розумюк В. Проблеми становлення нового світового порядку / В. Розумюк // «Третій світ» у контексті цивілізаційних вимірів розвитку і глобальних викликів ХХІ століття : матеріали міжнародної наукової конференції (м. Київ, 10 червня 2014). – К., 2014. С.52.
- 3.40. Торкунов А.В. Корейский вопрос // Международная жизнь. 2003, № 5. С. 55-67.

3.41. Торкунов А.В. История Кореи. М.: Московский Государственный Институт международных отношений (РОССПЭН), 2003 □□ 430 с.

3.42. Толорая Г. Выступление на семинаре Корейский полуостров: Вызовы и возможности для России. Орг.: Фонд Русский Мир и РНК АТССБ. Москва, 21 сентября 2010 г.

### **Boshqa Xorijiy davlatlarda chop etilgan:**

3.43. Чан Янь. Роль Китая урегулировании Северокорейской ядерной проблемы 13.03.2008 Хэйлуцзянский университет. С.157-161.

3.44. Allen K.W., McVadon E.A. China's Foreign Military Relations. – Washington, D.C., 1999.

3.45. Breslin Sh. The Soft Nation of China's Soft Power Asia Programme Paper: ASP PP 2011/03//

3.46. Chirstensen Th. 1999. China, the U.S. – Japan Alliance, and the Security Dilemma in East Asia. – *International Security*, Vol. 23, № 4. P. 23.

3.47. China's Impact on Korean Peninsula Unification and Questions for the Senate. A Minority Staff Report Prepared for the Use of the Committee on Foreign Relations United States Senate One Hundred Twelfth Congress, Second Session. December 11, 2012. P. 6.

3.48. Shambaugh D. China's New Diplomacy in Asia Foreign Service Journal, may 2005 № 7. P. 17–20.

3.49. Jing-dong Yuan. Pyongyang's Nuke Talk Tests Beijing's Diplomacy. – *Asia Times*, 16.02. P. 22–28.

3.50. Traub J. The World According to China // New York Times Magazine. September 3, 2006. , pp. 24–29.

3.51. Korea Trade-Investment Promotion Agency. Marumoto Mika. The Roles of China and South Korea in North Korean Economic Change // *Korea's Economy*, 2008. Vol. 24. P. 15–20.

- 3.52. Mansourov A. 2004. Lip Serving the Great (Sadaejuui) with an Attitude: North Korea's China Debate. – Forum, № 1-2. P. 32
- 3.53. Odgaard L. Entre Anarchie et l'ordre. Les programmes américain et chinois d'ordre international / L. Odgaard // ASPS – 2012. – Vol. 3.14. P.12
- 3.54. Parker J. Restore US nukes to South Korea. – Asia Times, 23.02. Western Firms doing Business in N. Korea // The Korea Herald. Seoul. November 7, 2006.P. 22–30.
- 3.55. Park, J , Hong S.L, Jun S.K, Hong S.K, Park M.S. Kim Ch G. Dae Young Ko, Park. J.Y. 2014. Korea China FTA and Negotiation Strategies by Service Industry, Issue Paper 2014-347 Seoul: Korean Institute for Industrial Economics and Trade.
- 3.56. The Chosun Ilbo (Seoul, Korea), 01.05.2013.№ 4 P. 11
- 3.57. Van B, Jan. Economische diplomaten and Diplomatieke economen. (Экономические дипломаты и Дипломатические экономисты.) International Spectator. 2010.No. 64 (2) (Februari). P.48.
- 3.58. 习近平谈治国理政: 俄文/ 习近平著; 俄文翻译组译. –北京: 外文出版社, 2014。
- 3.59. 袁鹏 ‘中国真正的挑战是未来 5 - 10 年’ (Yuan Peng) . (China's Real Challenge is the Next) 5 - 10 Years, 人民日报 People's Daily.

#### 4. Internet manbalari:

- 4.60. Ланьков А. Северная Корея: заметки о рынке в условиях тоталитаризма. // <http://www.inliberty.ru/library/study/2027/> .
- 4.61. Север югу не товарищ: Переговоры между Сеулом и Пхеньяном не увенчались успехом. Коммерсантъ-Online. 2010, 30 сентября // <http://www.kommersant.ru/doc-rss.aspx?DocsID=1513018>

- 4.63. Шэнь Д. 2005. Эксперт: миру придется смириться с “ядерной” Северной Кореей. // <http://topnews.com.ru/9/10127/2005-2-25/index.html>
- 4.64. Шилин А.А. Ядерная программа КНДР. // <http://www.armscontrol.ru/course/>
- 4.65. Central Intelligence Agency. The World Fact Book: DPRK. // <https://www.cia.gov/library/publications/the-world-factbook/geos/kn.html>
- 4.66. China Vows to Revitalize Northeastern Industrial Base. Chinese Government Official Web Portal 2003, 3 August. // [http://www.gov.cn/english/2003\\_08/13/content\\_23616.html](http://www.gov.cn/english/2003_08/13/content_23616.html)
- 4.67. Gronholt-Pedersen J. Russia, China Study Long Term Gas Deal. *The Wall Street Journal*. 2010, 30 September. // <http://www.online.wsj.com/article>
- 4.68. The Chosun Ilbo (Seoul Korea) 01.05.2013 // [http://myhome.chosun.com.rss\\_list.html](http://myhome.chosun.com.rss_list.html)
- 4.69. Washington, D.C.: Peterson Institute for International Economics, August 2007. P. 19–20 // [www.petersoninstitute.org/publications/wp/wp07-7.pdf](http://www.petersoninstitute.org/publications/wp/wp07-7.pdf)
- 4.70. Zheng Bijian. China's “Peaceful Rise” to Great-Power Status. *Foreign Affairs*. 2005. // <http://www.irchina.org/en/news/view.aspx>